

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK 796.81

MURADOV FARXAT MUXMUDJANOVICH

**“Kurash bo'yicha boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida
kontingentni saqlash uchun o'quv mashg'ulot jarayonini
mustahkamlash”**

5A112001-Jismoniy madaniyat mutaxassisligi

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

p.f.n B.Saidov _____

SAMARQAND - 2014

ShARTLI BELGILAR RO'YXATI

JT	Jismoniy tarbiya
JM	Jismoniy madaniyat
UJT	Umumiy jismoniy tayyorgarlik
MJT	Maxsus jismoniy tayyorgarlik
BO'SM	Bolalar-o'smirlar sport maktabi
OZIBO'SM	Olimpiya zahirolari ixtisoslashtirilgan bolalar- o'smirlar sport maktabi
JTvaS	Jismoniy tarbiya va sport
BTG	Boshlang'ich tayyorgarlik guruhi
O'MG	O'quv-mashg'ulot guruhi
O'TS	O'pkaning tiriklik sig'imi
TG	Tajriba guruhi
NG	Nazorat guruhi

Mundarija

Kirish 5-8

I. bob. Kurashchi harakat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.

- 1.1. Sportchi harakat faoliyatining psixologik-pedagogik mexanizmlari..8-12
- 1.2. O'quvchilar kontingentining tarqab ketishi BO'SM faoliyati samaradorligining ko'rsatkichi sifatida 12-16
- 1.3. Yosh sportchilarning motivlari orasidagi aloqadorlik 16-19
- 1.4. Sport bilan shug'ullanish jarayonida motivlash sohasining o'ziga xos xususiyatlar 19-25
- Bob bo'yicha xulosa 25-26

II bob. Tadqiqotning vazifalari, usullari hamda uni tashkil etish.

- 2.1. Tadqiqotning vazifalari
- 2.2. Tadqiqotning usullari
- 2.2.1. Maxsus ilmiy-usuliy adabiyotlardan olingan ma'lumotlarni nazariy tahlil qilish va ularni umumlashtirish
- 2.2.2. So'rovnoma yordamida BO'SM murabbiylari amaliy tajribasini tahlil etish
- 2.2.3. Kurash turlari misolida BO'SM o'quv-mashq guruhlarini o'quvchilarining o'quv-mashq jarayonidagi faoliyati ustida pedagogik kuzatuv olib borish
- 2.2.4. BO'SM o'quvchilari umumiy va maxsus jismoniy tayyorligi darajasini pedagogik testlash
- 2.2.5. Pedagogik tajriba
- 2.2.6. Tadqiqot natijalarining matematik-statistik tahlili

III bob. BO'SM boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida o'quvchilarning tarqab ketishiga xos xususiyatlar va o'quv-mashq jarayonini tashkil etish.

- 3.1. Ko'p yillik sport tayyorgarligi bosqichlarida tarqab ketishning yoshga bog'liq "cho'qqi"lari va nisbiy barqarorlik zonalari

3.2. Turlicha yosh-malaka guruhlari kurashchilarining qiziqishlari rivojiga xos xususiyatlar tahlili

3.3. Murabbiylarning amaliy faoliyatida ularning kasbiy vakolatlilik ko'rsatkichlarini tahlil etish

IV BOB. Kurash bo'yicha boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida o'quvchilar kontingentini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarbiyaviy jarayon usuliyatini asoslash.

4.1. Pedagogik tajribaning konsepsiyasini shakllantirish: tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish

4.2. Pedagogik tajribada tarbiyaviy yo'nalishlarni amalga oshirishning usul va vositalari

4.3. Tajriba guruhlarida o'quv-mashq jarayonini tashkil etishning xususiyatlari

4.4. Ta'limiy-ma'rifiy ishlar sifatini bajarishning usul va vositalari..59-62

To'rtinchi bob bo'yicha xulosa 62-63

Xulosa 64

Amaliy tavsiyalar 65

Foydalanilgan adabiyotlar 66

Ilovalar

Tatbiq etish dalolatnomalari

KIRISH

Mustaqil rivojlanish yo'lini tanlagan O'zbekistonda Respublika Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi va doimiy qo'llab-quvvatlashi bilan bugungi kunda sport faoliyatining jadal sur'atlarda ko'tarilishi kuzatilyapti. Jahon sport arenalarida qator sportchilarimizning muvaffaqiyatli chiqishlari shundan dalolat beradi.

Zamonaviy sport tayyorgarlik tizimini optimallashtirish va tayyorgarlik vaqtidagi innovasion jarayonlar strategiyasi bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi terma jamoalari a'zolari bo'lgan va yaqin zahiradagi sportchilarni tayyorlashning muhim vazifalaridan biri bo'lib turibdi (1,2,3,4,).

Shunday qilib, bolalar, o'smirlar va yoshlarning sport tayyorgarligi faqatgina har tomonlama jismoniy tayyorgarlik, har turli qobiliyatlarni rivojlantirish va takomillashtirish masalalarini hal etib qolmasdan, shug'ullanuvchilar shaxsini shakllantirish muammosini ham qamrab oladi.

Ayni vaqtda sport natijalarining bugungi kundagi darajasi murabbiylarning kasbiy sifatlariga, ularning bilimi va amaliy ko'nikmalariga yuqori talablar qo'yadi. Yoshlar sporti sport zahiralarni tayyorlashning nihoyatda muhim bazasi hamda tarbiyaning universal vositasi sifatida sportchining ko'p yillik tayyorgarligini samarali tashkil etishni, o'quv-mashq ishlarining yanada oqilona tashkiliy shakllari, vosita va usullarini izlashni talab qiladi.

Dolzarbligi. Sport maktabi yoshlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga ommaviy jalb etish bo'yicha ishlarning asosiy davlat shakli hisoblanadi. Bolalar va o'smirlarning imkon qadar ko'proq qismini sport mashg'ulotlariga jalb etish ehtiyoji jamiyat taraqqiyotidagi shunday noxush yo'nalishlar tufayli kuchayib boryaptiki, hozirgi vaqtda sport maktablari faoliyatining samaradorligini oshirish muammosi ayniqsa dolzarblashib borayotganligi bejiz emas.

Shuni alohida qayd etish lozimki, zamonaviy sportda murabbiyning roli, uning kasbiy va pedagogik mahorati, shaxsiy sifatleri ahamiyati keskin ortib ketdi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizdagi mualliflarning ilmiy-usuliy adabiyotlarini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, yosh sportchilarni tayyorlash tizimiga, xususan, turli yoshdagi bolalarni tarbiyalash jarayoniga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko'pchilikni tashkil etadi. (Abdiyev A.N., 2005; Sharipova D.D., Musurmanova A., 2005; Yugay L.P., 2005; Atayev A.K., 2007; Kerimov F.A., 2008; Yunusova Yu.M., 2009 va Z.B. Boltayev., 2012; b.).

Tadqiqotning maqsadi: boshlang'ich sport tayyorgarligi bosqich-larida o'quvchilarning sportni tashlab ketishi darajasini pasaytirish hamda sport maktabida ukuv ishlarni samaradorligini oshirish.

Tadqiqotning predmeti va obyekti: boshlang'ich sport tayyorgarligi bosqichida kurashchilar bilan olib boriladigan o'quv-mashq ishlarini qurishning tashkiliy-usuliy jihatlari .

Tadqiqotning farazi. O'z ishimizda biz shundan kelib chiqdikki, kurash turlari bo'yicha BO'SM kontingentining sportni tashlab ketishi, eng avvalo, ko'p yillik sport tayyorgarligini tashkil etish qonuniyatlarining buzilishi bilan, o'quvchilarni saqlab qolishga yo'naltirilgan ukuv-tarbiyaviy ishlarning yo'lga qo'yilmagani bilan bog'liq.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar.

1. Sport maktablarining yosh kurashchilardagi o'ziga xos xususiyatlarni, jumladan, ulardagi motivasiya sohasining shakllanish xususiyatlarini hisobga olmaydigan murabbiylari faoliyatida tashkiliy-usuliy tamoyil-larning buzilishi o'quvchilarning sportni tashlashigata'sir ko'rsatadi.

2. Boshlang'ich sport tayyorgarligi guruhlarini kontingentlarini mustahkamlash bolalarning ehtiyoj va qiziqishlaridagi o'ziga xos jihatlarni hisobga olish hamda fe'l-atvorda sportchiga xos qirralarni shakllantirish va ahil jamoani tarbiyalashga o'quv-mashq ishlarining tashkil etilishini o'zgartirishni talab qiladi.

Ilmiy yangiligi. Ko'p murabbiylar faoliyatidagi umumiy kamchilik bolalarning shaxsiy xususiyatlariga, ularning qiziqishlari hamda kurash bilan

shug'ullanish motivlarining yo'nalishlariga qarab mashg'ulotlarni tashkil etish qonuniyatlarini buzishdan iboratligi ko'rsatildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Yo'naltirilgan ukuv-tarbiyaviy ishlarni olib borish uchun sarflanadigan vaqt hajmini jiddiy oshirish bolalarda sportga barqaror qiziqishning erta shakllanishiga va boshlang'ich sport tayyorgarligi guruhlarida sportni tashlab ketuvchilar foizining kamayishiga yordam berishi tajribalar yordamida isbotlandi.

Ishning sinovdan o'tishi. Tadqiqotning asosiy holatlari natijalari yuzasidan xalqaro hamda respublika miqyosidagi konferensiyalarda ma'ruzalar qilingan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertasiyaning eng ahamiyatli natijalari turli davriy nashrlarda 6 ta maqola ko'rinishida taqdim etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, to'rtta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati,

1.1. Kurashchi harakat faoliyatining psixologik-pedagogik mexanizmlari

Ma'lumki, inson faoliyati harakat faolligiga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan ongli ravishda qo'yilgan maqsadlarga erishishga yo'naltiriladi. Harakat faolligi bu odam faolligining bir turi bo'lib, shu faollik subyekti tomonidan uning o'ziga, o'z jismoniy va psixik sifatlari, harakat faoliyatlariga qaratilgan bo'ladi. U ko'proq jismoniy tarbiya yoki sport faoliyati doirasida ro'yobga chiqariladi. Jismoniy tarbiya sohasidagi faoliyatning asosiy maqsadi jismoniy va psixik barkamollik, ya'ni muntazam mashg'ulotlar hamda maxsus jismoniy yuklamalar yordamida shaxsning rivojlanishi jarayonida uyg'unlikka erishishdir. [9, 10, 40, 51].

Inson hayotida harakat faolligi faol biologik stimulyasiyaning omili, moslashish mexanizmlarining takomillashuvi omili, faqat jismoniy emas, balki aqliy rivojlanishning ham omili hisoblanadi. [14, 28, 32, 77, 88].

Shaxsni har tomonlama rivojlantirish tamoyili jismoniy tarbiya tizimining eng asosiy tamoyillaridan biri sanaladi [79, 98,103,104]. Biroq, ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda, har tomonlama jismoniy rivojlantirish, birinchi navbatda, insonning aynan aqliy takomillashuviga ijobiy ta'sir o'tkazishi lozim [115]. Bunday holatda o'quvchining maqsadi jismoniy tarbiya jarayonida o'z-o'zini ro'yobga chiqarish, o'z qobiliyatlarini (jismoniy, psixologik, ma'naviy) yuzaga chiqarish hamda rivojlantirish hisoblanadi [105, 106].

Mazkur holatda biz muammoni asosan sport faoliyati nuqtai nazaridan ko'rib chiqmoqdamiz.

Harakat faoliyatining subyekti o'z-o'zini tashkil etish xususiyatlariga ega bo'lgan inson. Sport faoliyatida u maksimal qiyinchiliklarni yengib o'tishga avvaldan tayyor, bularsiz yuqori sport natijalarini tasavvur etib ham bo'lmaydi. Jismoniy tarbiya sohasidagi harakat faoliyati subyekti jismoniy faoliyatlardan, harakatlardan shundayligicha qoniqish hosil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan, uning juda katta kuch va cheklashlarni talab qilmasligiga intilgan insondir [130, 141].

Sport – mutlaqo o'ziga xos, boshqalardan tubdan farq qiluvchi faoliyat turi. Ma'lum ma'noda uni ayrim san'at turlari bilan qiyoslash mumkin. Ko'pgina belgilariga ko'ra sportni hech narsaga solishtirib bo'lmaydi, bu, ayniqsa, yuqori natijalar sportiga taalluqli.

Ulardan eng muhimlari:

1) sport bilan shug'ullanganda, inson tafakkuri va faoliyatining obyektining tanasi, o'z harakatlari bo'ladi;

2) sport faoliyati albatta juda shiddatli, hatto maksimal darajadagi jismoniy va psixik zo'riqishlar bilan bog'liq;

3) sportga yuksak natijalar uchun kurashish musobaqalar xos bo'lib, aynan yuqori natijalar sportida u faqat ishtirok etish emas, g'alabaga erishish maqsadini ko'zlaydi [20, 21, 26].

Ko'pgina sport mutaxassislari [19, 52, 53, 54, 55, 122, 123, 151] fikricha, yuqori natijalar sportida motivasiya psixik zo'riqish bilan bog'liq bo'lib, u faoliyatning sportchi imkoniyatlariga nomuvofiqligi tufayli yuzaga keladi va ularni bartaraf etish uchun yo'naltiriladi. Sport faoliyati sportchi organizmining psixik hamda fiziologik funksiyalari javob reaksiyasi bilan kechib, birinchidan, uning haqiqiy yoki kutilayotgan mashg'ulot yoxud musobaqa yuklamasiga, atrof-muhit omillariga, hissiy kechinmalar ta'siriga moslashishi jarayonini aks ettiradi, ikkinchidan, bu ta'sirlardan keyin tiklanish jarayonlarini tavsiflaydi [120, 134].

Sport faoliyati chog'ida shaxs faolligining mohiyati tashqi vaziyat ta'sirida (yoki unga qarshi) hamda faoliyat subyektining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'z-o'zini tashkil etish, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z o'rnini topish qobiliyati bilan izohlanadi. Sport faoliyati samaradorligini oshirishga tizimning biologik, psixologik, psixofiziologik, ijtimoiy-psixologik va pedagogik tarkibiy qismlarini o'z ichiga olgan majmualiy yondashuv yordamida erishish mumkin [15, 24, 29, 33, 41].

Tabiiyki, sport faoliyatida harakat faolligi albatta psixik faoliyat bilan bog'liq, chunki har qanday harakatda psixik tarkibiy qism mavjud.

Kurashda sportchilarning faoliyatida idrokiy-aqliy va hissiy-irodaviy jarayonlar tizimi birinchi planga chiqadi, ular tinimsiz o'zgarib turgan faoliyat sharoitida, qisqa vaqt oralig'ida yuzaga kelayotgan vaziyatlarni idrok etish, musobaqa bellashuvini olib borish yo'l va usullari haqida ijodiy qarorlar qabul qilib, ularni amalga oshirish zaruriyati bilan bog'liq ravishda kechadi. Mazkur sport turida muqobil noaniqlik, birinchi navbatda, raqib tomonidan tanlanadigan qarshi harakat vositalarining to'g'ridan-to'g'ri xususiyatlari orqali, sheriklar tomonidan esa hamkorlikdagi harakat vositalari orqali yuzaga chiqadi. Bu har bir o'yinchini har qanday vaziyatda sheriklar va raqiblarning ehtimoliy (bajarilishi ehtimolga eng yaqin bo'lgan) harakatlarini hisobga olishga majbur qiladi [133, 140, 178, 181].

Kurash turlarida faoliyat samaradorligi bu jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasi, psixomotor, idrokiy (perseptiv) va aqliy qobiliyatlar, muqobil hamda vaqt noaniqligining eng xilma-xil vaziyatlarida texnik jihatdan murakkab harakatlarni ko'p karra takrorlash natijasidir [22, 83, 85, 127, 128, 143]. Bu harakatlarning kognitiv tarkibiy qismiga katta talablar qo'yadi va taktik qarorlarning murakkabligi hamda jadalligida namoyon bo'ladi [152, 166, 167, 168].

Musobaqa faoliyatini faqat maqsadni belgilash xususiyatlari, har bir bellashuvga xos bo'lgan harakat va operasiyalarning xususiyatlari emas, mazkur harakat va operasiyalar amalga oshiriladigan sharoitlar ham belgilaydi. Sport faoliyatining asosiy sharoitlari quyidagilardir [147, 170]:

- 1) texnik harakatlarni bajarish uchun vaqt limiti;
- 2) raqib bilan bevosita munosabatda harakatlarni bajarish;
- 3) operasiyalarni ong ostiga o'tkazgandagina samarali bo'lishini hisobga olib, murakkab texnik harakatlarni psixomotor mexanizmlar asosida amalga oshiriladigan sharoitlarda bajarish zarurati;
- 4) zamonaviy yakkakurashlarda raqiblarning taxminan tengligi bilan bog'liq bo'lgan qattiq zo'riqish.

Musobaqa faoliyatining obyektiv sharoitlari kurashchining sport tasnifi o'sgani sayin o'zgarib boradi, u aslida sportchilar yoshining o'zgarishiga parallel ravishda o'tadi: har bir yoshga mahoratning muayyan darajasi muvofiq keladi.

Sport faoliyatining aniq mazmuni sportchi organizmining o'ziga xos va yaxlit funktsional reaksiyalarini yuzaga keltiradi. Bu reaksiyalar har doim o'zaro aloqada bo'lib, organizmdagi barcha tizimlar faoliyati umumiy darajasining integral dinamik tavsifini faoliyatning maxsus sharoitlarga moslashish mexanizmlari namoyon bo'lishi sifatida belgilaydi.

Umumiy funktsional holatning namoyon bo'lishi va uning bayon etilishida ikkita sifat nuqtai nazaridan turlicha jihat farqlanadi subyektiv va obyektiv. Bu umumiy funktsional holatning 2 asosiy funksiyasi namoyon bo'lishi: motivlash va maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakat; izdan chiqqan gomeostazning tiklanishi (moslashish).

Faoliyatning ekstremal sharoitlariga (sport esa aynan shunday faoliyatdir) psixik moslashish jarayoni ko'p jihatdan psixik yuklamaga bog'liq. Bu mashg'ulot va musobaqalar davomida yuzaga keladigan ekstremal talablarga ko'ra sportchi hatti-harakatlarini boshqarishning psixik mexanizmlarini o'z ichiga oluvchi ish jarayoni hisoblanadi. Bunda sportchi psixofiziologik muvozanatni faqat yanada yuqoriroq darajada yoki zahiradagi funktsional tizimlarni ishga solish yordamida boshqara oladi [30, 64, 158]. Jismoniy hamda psixik yuklama ko'p jihatdan sportchi boshidan kechirayotgan zo'riqish darajasi bilan belgilanadi. Bu jihatdan sport shunisi bilan o'ziga xoski, yaqqol ko'zga tashlanadigan zo'riqish, stress holatisiz sportchining yuksak darajadagi mashqlanganligini tasavvur etib bo'lmaganidek, yuklamalarga to'laqonli moslashuv ham bo'lishi mumkin emas [156, 157].

1.2. O'quvchilar kontingenti BO'SM faoliyati samaradorligining ko'rsatkichi sifatida

Qo'shimcha ma'lumot beruvchi muassasa hisoblanadigan sport maktabi o'z-o'zini takomillashtirish, bilim va ijodkorlikni namoyon qilish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, kasbiy jihatdan o'z o'rnini topish, jismoniy, aqliy va ma'naviy qobiliyatlarni rivojlantirish, qobiliyatlarga muvofiq sport yutuqlari darajasiga erishish uchun yordam berishga safarbar etilgan [37, 38, 39, 42, 65]. Shunday qilib, bolalar, o'smirlar va yoshlarning sport tayyorgarligi faqatgina har tomonlama jismoniy tayyorgarlik, turli qobiliyatlarni rivojlantirish hamda takomillashtirish masalalarini hal etib qolmasdan, shug'ullanuvchilarning shaxsini shakllantirish muammosining ham yechimini topishga yordam beradi.

BO'SM oldiga davlat tomonidan qo'yilayotgan asosiy vazifa bolalar va o'smirlarning imkon qadar maksimal miqdorini jalb etish orqali ommaviy sportni rivojlantirishdan iborat. Ayni vaqtda, sport natijalarining bugungi darajasi murabbiylarning kasbiy sifatlariga, ularning bilimi va amaliy ko'nikmalariga yuqori talablar qo'yadi.

Yoshlar sporti sport zahiralarni tayyorlashning muhim vazifasi va universal tarbiya vositasi sifatida sportchilarning ko'p yillik tayyorgarligini samarali tashkil etishni, o'quv-mashq ishlarining yanada oqilona tashkiliy shakllari, vosita hamda usullarini izlashni talab qiladi [11, 31, 59, 69, 71, 99].

Sport maktabi oldiga qo'yilgan vazifalar butun ko'p yillik sport tayyorgarligi jarayonining aniq maqsadga yo'naltirilganligi va vorisiyligini nazarda tutadi. Shu bilan birga, yoshga bog'liq rivojlanish hamda sport mashg'ulotlarining qonuniyatlari asosida izchil tarzda hal etiladigan vazifalarga ko'ra ko'p yillik jarayonda bir necha bosqich ajratiladi. Sportda butun ko'p yillik jarayonni dastlabki sport tayyorgarligi, boshlang'ich sport tayyorgarligi, chuqur ixtisoslashuv

va sport- takomillashtirish bosqichlariga taqsimlash qabul qilingan [116, 145, 156, 161].

Sport sohasi mutaxassislarining ko'pdan-ko'p ishlanmalariga muvofiq, bolalarni sport mashg'ulotlariga jalb etish uchun eng maqbul yosh qizlarda 7-8, o'g'il bolalarda 8-10 yoshdir. Odatda, dastlabki tayyorgarlik bosqichi bir yildan ikki yilgacha davom etadi. Boshlang'ich sport ixtisoslashuvi bosqichi bazaviy tayyorgarlik bosqichi hisoblanib, unda umumiy ish qobiliyati asosida yotuvchi aerob quvvat bilan ta'minlanish mexanizmlarini rivojlantirishga ustuvor yo'naltirish bilan sport turi texnikasini takomillashtirish davom etadi. Bosqichning o'rtacha davomiyligi uch yil – qizlar uchun 9-11 yosh, o'g'il bolalar uchun – 10-12 yosh. Tanlangan sport turida chuqur ixtisoslashuv bosqichi o'rtacha uch-to'rt yil davom etadi: qizlarda bu 12-14 yosh, o'g'il bolalarda – 13-15 yosh. [156, 159].

BO'SM o'quvchilarining sportni tashlab ketganlardan qolgan qismi ancha katta bo'lib, ularning asosiy qismi o'z sport takomillashuvini to'xtatib qo'yadi, bu esa sport maktablarining sport zahirasini tayyorgarlash ishlari samaradorligini pasaytirib yuboradi. BO'SMda kurash kabi sport turi uchun iqtidorli sportchilar kontingentini mustahkamlash masalasi ayniqsa dolzarb. Barcha yosh guruhlarida tizimida amalga oshiriladigan sport zahirasini tayyorlash ancha qimmat turuvchi tadbir. Shu bilan birga, ko'pchilik mualliflar hatto ixtisoslashtirilgan sport maktablari orasida ham ularni bitiruvchilarning mamlakat terma jamoalariga chiqishi bo'yicha ishlarning past rentabelligini ta'kidlaydilar [11, 12, 20, 144 va b.).

Sport sohasidagi eng e'tiborli mutaxassislardan biri N.J. Bulgakovning ta'kidlashicha (47, 48), yaxshi tayyorgarlik ko'rgan yuqori malakali sportchilar soni kamligining sabablaridan biri shuki, boshlang'ich sport tayyorgarligi guruhlarining umumiy miqdori katta emas, bolalar-o'smirlar sport maktablarida ommaviy o'qishga qiziqish juda sust [19, 20]. Bu iqtidorli bolalarni aniqlash hamda sport mashg'ulotlariga jalb etish imkoniyatlarini ancha pasaytiradi. Muallif turli malaka darajasidagi sportchilarning miqdoriy nisbati optimal bo'lganda sport

zahirasini tayyorlash bo'yicha BO'SM faoliyatini rejalashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida BO'SM o'quvchilari kontingenti kattagina qismining sportni tashlab ketishi va qo'nimsizligi obyektiv ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Amaliyotdan ma'lumki, yuqori natijalar ko'rsatishga qodir bo'lgan bolalar kotingentining muayyan qo'nimsizligi muqarrar narsa [20]. Shu bilan birga, o'z egallagan mahoratiga erishish uchun 5-8 yil atrofida og'ir, muntazam mehnat qilib shug'ullangan malakali yosh sportchilarning takomillashuvini to'xtatish holatlariga ham ko'pincha duch kelish mumkin [90, 91, 119].

Sport tayyorgarligining turli bosqichlarida BO'SM kontingenti miqdoriy xususiyatlarini tahlil etish endi shug'ullana boshlagan bolalarning xalqaro toifadagi sport ustasi darajasiga yetguniga qadar sportni tashlab, safdan chiqib ketishi qonuniyatlari to'g'risida ma'lum tasavvur beradi.

Dastlabki saralashning yomon sifati o'quv-mashq guruhlarining tashkil etilishida aks etadi. Ko'pgina ishlarda ko'rsatilishicha, dastlabki tayyorgarlik staji diapazonining kengligi 4 yildan 2-3 oygacha eng avvalo, sport maktabi O'MG laridagi mashg'ulotlarning birinchi yilida o'quvchilarning saralanib, chiqib ketishiga ta'sir ko'rsatadi. Safdan chiqib ketishlarning tasodifiy emasligini quyidagi faktdan ham bilish mumkinki, turli yillarda o'tkazilgan tekshiruvlarning ma'lumotlari asosidagi holatlariga qarab yosh sportchilarni toifalarga taqsimlaganda, dastlabki tayyorgarlik staji eng kichik bo'lgan chiqib ketgan bolalardan alohida sinf tashkil etilgan. Bolalarning bu guruhida mashg'ulot yuklamasiga yurakning reaksiyasi hamda tiklanish ko'rsatkichlariga qaraganda, mashg'ulotlardagi topshiriqlarning 40% gacha qismini ular nihoyatda zo'riqib bajarganlar.

Yosh sportchilarning mashg'ulotlarni erta tashlab ketishlarini bajarayotgan mashqlarning bir me'yorda ekanligi hamda psixik charchoq yuzaga kelganligi tufayli mashg'ulotlarga qiziqishning yo'qolishi bilan izohlash mumkin [36, 46, 49,

57]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning katta hajmli topshiriqlarni bajarishlari o'zini oqlamaydi, chunki ular yurak, o'pka, qon tomirlarining morfo-funksional rivojlanishi uchun zarur fiziologik siljishlarni yuzaga keltirmaydi [63]. Sport bilan erta shug'ullana boshlaganda, ko'p yillik tayyorgarlikning uzoq davom etishi ham sportni tashlab ketishlar hissasining ortishiga olib kelishini e'tibordan soqit qilmaslik kerak.

Mashg'ulotlardagi davomat ko'rsatkichi ham yosh sportchilarning safdan chiqib ketishlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. O'qishning sifati va sur'ati, bajarilgan topshiriqlar hajmi bolalarning o'quv-mashq darslariga qatnashishlariga bog'liq [69, 86 va b.]. Mashg'ulotlarning ko'p qoldirilishi yosh sportchilarning umumiy va maxsus tayyorgarlik darajasi nuqtai nazaridan o'z tengdoshlaridan ortda qolib ketishiga sabab bo'lishi mumkin [93]. Tez-tez dars qoldirish natijasida guruhdan ortda qolib ketish yuz berar ekan, o'quvchida o'z imkoniyatlariga ishonmaslik, noqulaylik kayfiyati kuzatiladi. Bularning barchasi muvofiq ravishda sport mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishni pasaytiradi va, shubhasiz, safdan chiqib ketishga olib keladi.

Sport bilan shug'ullanishning boshlang'ich bosqichida bolalarning davomati o'quvchilarning qiziqishlari hamda ota-onalarning mashg'ulot jarayonidan manfaatdorligi darajasiga bog'liq bo'ladi. [51, 52]. Ayni vaqtda aniqlandiki, murabbiyning sport motivlarini shakllantirish yo'lidagi maqsadli faoliyati sportga qiziqishning rivojlanishida, charchash bo'sag'asining yuqorilashuvi va sport natijalarining ortishida sezilarli ijobiy siljishlarga sabab bo'ladi [43].

1.3. Yosh sportchilarning motivlari orasidagi aloqadorlik

Sport maktablarida o'quvchilarning sportni tashlab ketishi ma'lumotlarini tahlil etar ekan, M.Raximov [46] yosh sportchilarning mashg'ulotlarni to'xtatib qo'yishiga ko'plab sabablarni aniqladi. Kelib chiqish manbaiga ko'ra safdan chiqib ketish sabablari tashkiliy-usuliy hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Birinchi guruhga o'quv-mashq jarayonini tashkil etish tamoyillarining buzilishi bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lgan sabablar kiritiladi. Bularga sport rejasining bajarilishi va sport mashg'ulotlarini o'qish bilan qo'shib olib borishdagi qiyinchiliklar; sport natijalari va sport tayyorgarligi ko'rsatkichlarida o'sishning yo'qligi; salomatlikning izdan chiqishi hamda yurak mushagining o'ta zo'riqqanligi; mashg'ulot jarayonining bir me'yoriligi va yaqqol ko'zga tashlanadigan o'ta charchash holati, boshqa murabbiyga o'tish yoki boshqa sport turi bilan shug'ullana boshlash va h.k. kiradi. Ikkinchi guruh sportni tashlab ketishning ijtimoiy-psixologik xususiyatli sabablarini o'z ichiga oladi. Bular o'quvchilarning sport mashg'ulotlariga u qadar qiziqmasligi, boshqa ishga ko'proq qiziqishi, murabbiy bilan o'zaro munosabatlarining buzilishi, yaqin kishilar, do'st-o'rtoqlar va b. tomonidan qo'llab-quvvatlashning yo'qligi hamda salbiy munosabatni shakllantirishi oqibatlarini bo'lishi mumkin. Katta yoshli sportchi-o'quvchilarning sportdan ketishiga olib keladigan sabablarning xuddi shu guruhiga sport bilan bog'liq bo'lmagan qo'shimcha mashg'ulotlarni talab qiluvchi obro'li kasbni egallash niyati, istiqboli bo'lmagani uchun mashg'ulotlarga qiziqishning yo'qolishi kabilar ham kiradi. Aslida, bolalarning sport mashg'ulotlarini to'xtatishiga olib keladigan sabablarning aksariyat qismini ko'p yillik

tayyorgarlikning usuliy tamoyillari buzilishi keltirib chiqaradi, ular, odatda, yoshi katta, malakali sportchilar uchun mo'ljallangan mashg'ulot yuklamalarining qo'llanilishi bilan bog'liq bo'ladi. Usuliy tamoyillar eng ko'p buziladigan holatlar sirasiga shug'ullanuvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasiga mashg'ulot yuklamalari hamda mashg'ulot o'tkazish usullarining nomuvofiqligini kiritish mumkin. [20, 31, 42].

Biz kurash mashg'ulotlari vaqtida bolalarda ijobiy hissiy fonning shakllanish muammosi tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortmagan, deya olmaymiz. Amaliyotning ko'rsatishicha, kurash mashg'ulotlari bilan shug'ullanishga undovchi motivlar orasida 10-11 yoshda o'yin faoliyati va birgalikdagi mashg'ulotlarga xohish hamda intilishning kuchayishi asosiy rolni o'ynaydi [69, 80].

O'yin usuli yosh sportchilar bilan ishlaganda o'zini juda oqlaydi va bu ishning samaradorligi mashg'ulot darslarida zurrur hissiy fonni yaratish yo'llarini tinimsiz izlash bilan chambarchas bog'liq [87, 118, 153, 154].

Ko'pgina mualliflar [125] ota-onalarda sport bilan muntazam shug'ullanishga qiziqish juda sust ekanligini ta'kidlab, buni umuman jismoniy madaniyat darajasining pastligi bilan bog'laydilar. Ommaviy sportning yetarlicha keng tarqalmasligi sabablaridan biri sifatida alohida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishning foydasi, umuman, jismoniy madaniyat to'g'risidagi zarur ilmiy bilimlarning yo'qligini aytib o'tadilar.

Mualliflardan birining fikricha, jamiyatning har bir a'zosini muntazam jismoniy mashqlarga jalb etishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri shuki, aholining katta qismi orasida (muallif bunday kishilar 25,7% ni tashkil etishini qayd qilgan) "Jismoniy tarbiyaning shaxs rivojiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siroti cheklangan" degan noto'g'ri fikr keng tarqalgan. Ko'pgina respondentlar, jismoniy tarbiya organizmni sog'lomlashtirishning bir jihati sifatidagina kerak, deb hisoblaydilar.

O'z ijtimoiy tadqiqotlari natijalaridan kelib chiqib, F.A.Kerimov[101] ta'kidlaydiki, aynan oila bolaning harakat faolligiga ta'sir o'tkazadi: uni yo rag'batlantiradi, talab qiladi, yo cheklaydi. Sport bilan faol shug'ullanuvchi ota-onalar ibрати bolalarda ham sportga qizqishning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Masalan, savol bilan murojaat qilingan sportchilardan 50% ining ota-onalari sport bilan faol shug'ullanganlar, ulardan 20% i esa katta sportda ham ishtirok etib, hatto rekordlar o'rnatgan.

Demak, mamlakatimizdagi tadqiqotchilarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, sport turidan qat'i nazar, sportdan erta ketishning sabablari tabiati bir xil va bu yerda ma'naviy qo'llab-quvvatlash hamda yordamning yetishmasligi, mashg'ulotlar rejimini to'g'ri tashkil eta bilmaslik, uni o'qish bilan qo'shib olib borishdagi qiyinchiliklar, sport bilan shug'ullanish motivini oshirish uchun ijtimoiy asosning bo'shligi muhim o'rin tutadi.

Aholining asosiy ommasini jismoniy tarbiyalash holatini anglash ko'p jihatdan shunday fakt bilan bog'liqki, jismoniy madaniyat ijtimoiy hodisa hamda shaxsning barqaror xususiyati sifatida umuman jamiyat va alohida har bir insonning eng muhim madaniy qadriyatlarini nuqtai nazaridan olib tekshiriladi.

1.4. Sport bilan shug'ullanish jarayonida motivlash sohasining uziga xos xususiyatlar

Yuqorida bayon etilganlardan tushunari bo'ldiki, pedagog-murabbiyning muvaffaqiyati ko'pincha boshlovchi sportchi shaxsining asosiy shakllanish yo'lini belgilovchi strategiya hamda taktikani to'g'ri tanlab olishiga bog'liq. Shuning uchun murabbiy shaxsning asosiy shakllanish mexanizmlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi lozim va bu juda muhim. Ma'lumki, insonning jismoniy hamda psixik rivojlanishi, uning shaxs sifatidagi shakllanishi faoliyat chog'ida hammadan ham jadalroq kechadi. Faoliyatning asosi har doim maqsad, maqsadning asosi esa motivlar, ideallar, qadriyatlar hisoblanadi, shaxsning yo'naltirilgan faolligi manbai sifatida esa ehtiyojlar maydonga chiqadi. Aynan ehtiyojlar faoliyatga undaydigan ichki sabab, inson xatti-harakatlarini amalga oshiruvchi kuch sanalib, xatti-harakatlarning sababi, atrof-muhitga tanlab munosabat ko'rsatish omili vazifasini o'taydi [96, 130].

Ehtiyojlar shaxsning atrof-muhitga munosabatini belgilaydi, shaxsning qobiliyatlarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi, qarashlari va hayotiy maqsadlarini aniqlashtiruvchi asos hisoblanadi [55, 56]. Shubhasiz, ehtiyojlar ko'pincha shaxsning qiziqishlari, qadriyat deb hisoblagan narsa-hodisalari, o'z ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish usullarida aks etar ekan, shaxsning alohida madaniyati darajasiga bog'liq bo'ladi [91].

Odamning bilish jarayonlari hamda imkoniyatlarini ochib berish uning faolligi tuzilishini atrof-muhitni o'zgartiruvchi, faol munosabat shakli sifatida o'rganilgandagina amalga oshishi mumkin. Ehtiyojlar shaxsning fundamental xususiyatlari sifatida uning yo'nalishini, hayot tarzi va faoliyatini belgilash tendensiyasiga ega. Faoliyat jarayonida qondirilgan ehtiyojlar zaminida yangi, yana ham yuqoriroq ehtiyojlar paydo bo'lib, ular muvofiq ravishda xatti-harakatlarning yanada faolroq va barkamolroq shakl hamda turlarini talab qiladi [49]. Demak, ehtiyojlarning inson faolligini qo'zg'atuvchi kuch sifatidagi ulkan ahamiyatini tushunish tarbiya nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ma'no kasb etadi. Agar ehtiyojlar va manfaatlar inson xulq-atvorining chuqur mexanizmlarini tashkil etsa, tabiiyki, tarbiya ularni shakllantirishga yo'naltirishi kerak [33].

Faoliyat xohishining doimo ehtiyojdan kelib chiqishi, uni qondirish obyekti faoliyat yo'nalishining xususiyatiga belgilashi hammaga ma'lum. Bunda bir ehtiyojning o'zi mutlaqo turli obyektlarda mujassam bo'lishi, o'z navbatida, bitta obyektida butunlay har xil, o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi, bir-biriga bog'lanib, ulanib ketgan, ba'zan o'zaro zid ehtiyojlar birlashishi mumkin. Tashqi obyektlar inson faolligini shuning uchun ham rag'batlantira oladiki, ular insonda mavjud ehtiyojlarga javob beradi, bu ehtiyojni qondirish yo'li hisoblanadi. Shu sababdan ehtiyojlarni o'zida mujassam etgan obyektlarning o'zgarishi ko'pincha ularning rivojlanish ko'rsatkichi hisoblanadi. Ishlarda [151] bolalar hamda o'smirlarning motivlash sohasidagi rivojlanish jarayoni quyidagicha taqdim etiladi:

a) bolaning hayotdagi, boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlari tizimidagi holatining o'zgarishi orqali ehtiyojlarning rivojlanishi. Turli yosh bosqichlarida bola hayotda har xil o'rin tutadi, bu uni o'rab turgan ijtimoiy muhitning turli talablarini taqozo etadi. Bola tashqi talablarga javob bera olgan taqdirdagina o'zi uchun zarur hissiy xotirjamlikka ega bo'lishi mumkin. Motivlarning o'zgarishi ortida dastlab bolaning o'ziga tengdosh o'quvchilar orasida tutgan o'rni bilan belgilanadigan yangi shaxsiy qarashlariga bog'liq

ehtiyotlar va, nihoyat, uning jamiyatning bo'lajak a'zosi sifatidagi ongli qarashlaridan avvalgi shaxsiy maqsadlari rivojlanishi bilan bog'liq ehtiyotlar yashiringan bo'ladi;

b) bolada yangi ehtiyotlar uning rivojlanish jarayonida yangi xulq-atvor va faoliyat shakllarini o'zlashtirishi, madaniyatning tayyor predmetlarini egallashi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi (u yoki bu sport turini egallagan bolalarda muntazam sport faoliyatiga ehtiyot);

v) ehtiyotlar doirasi kengayib, yangilarining paydo bo'lib borishidan tashqari, har bir ehtiyot ichida epizodik xususiyatli eng oddiy shakllardan nazariy bilimlar va amaliy takomillashuv hamda ijodga bo'lgan bitmas-tuganmas ehtiyotlarning murakkab shakllarigacha rivojlanish yuz beradi;

g) bola yoki o'smirlardagi motivlar sohasi tuzilishining rivojlanish yo'lini o'zaro munosabatda bo'lgan ehtiyotlar va motivlarning nisbati belgilaydi.

Motiv – bu muayyan ehtiyotlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish istagi. Bitta ehtiyot asosida faoliyatning har xil turlariga motivlar paydo bo'lishi mumkin [122]. Motiv odamni o'z oldiga vazifalar qo'yishga, maqsadini belgilab olishga undaydiki, bu maqsad muayyan sharoitlarda tasavvur etilib, motivlari talablariga javob beradigan hamda uning ehtiyotlarini qondiradigan predmetni yaratish yoki uni qo'lga kiritishga yo'naltirilgan faoliyatlarni talab etadi. Demak, motivlash inson xatti-harakati faolligini belgilovchi o'ziga xos quvvat zaryadi sanaladi [130]. Motiv faoliyatni bajarishga ichki qo'zg'atuvchi sabab, biror-bir ehtiyotni qondirish istagi hisoblanadi. Motivlar faqat xatti-harakatga undab, uni yo'naltirib, tashkil etib qolmasdan, eng avvalo, faoliyatning o'ziga shaxsiy ma'no hamda ahamiyat ato etadi.

Motivlar bolaning haqiqiy hayotida shakllanadi. Hayot birligiga motivlash sohasi birligi muvofiq keladi, shuning uchun motivlar alohida ajratilgan, bir-biri bilan bog'lanmagan chiziqlar bo'ylab rivojlana olmaydi. Demak, so'z hayotning rivojlanishi, bolaning hayotga munosabati, rag'batlarning o'zgarishi bilan bog'liq

holda uning motivlarini tarbiyalash ustida ketyapti. Faqat shu shart bilan bola oldiga qo'yilayotgan maqsad hamda vazifalar aniq, eng muhimi, hayotiy bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, yuzaga kelgan motivlar tuzilishi barqarorligining o'sishi yosh ortgan sayin bolaning xulq-atvori hamda rivojlanishidagi ustuvor motivlar ahamiyatini oshiradi. Hayot jarayonida bolada xatti-harakatlar va faoliyatning muayyan motivlari shakllanib, barqarorlashib qoladi, ularning xususiyatini bolaning tarjimai xoli, uning ijtimoiy doirasi (atrofidagi kishilar), uni tarbiyalash usullari belgilaydi. Barqaror ustuvor bo'lgan xulq-atvor motivlari yetakchi o'rin egallab, shu tariqa boshqa motivlarni o'ziga bo'ysundiradi. Motivlar sohasining iyerarxik tuzilishi o'zining eng rivojlangan shaklida xulq-atvorning ustuvor motivlari bo'lgan ma'lum axloqiy qadriyatlar, tasavvurlar, tushunchalar, g'oyalarning o'zlashtirilishini ko'zda tutadi [151].

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining motivlari sohasi shakllanishiga xos xususiyatlarni o'rganar ekan, O.A. Borisova [46] shunday xulosaga keladi: topshiriqni bajarish niyati dastlab katta yoshli kishi shu niyatning yuzaga kelishida ishtirok etgan holdagina paydo bo'ladi. Asta-sekin 7-10 yoshlarda bolalarda mustaqil ravishda niyat qilish qobiliyati shakllanadi va u barqarorlik kasb etib, faoliyatni amalga oshirishga tobora ko'proq unday boshlaydi. Bunda motivlashning eng qimmatli elementi bola yoki o'quvchining qiziqishi. Qiziqish shaxsning muayyan predmetda diqqatini jamlashi kabi uning uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan va hissiy etiborini qozongan obyektga saylab ko'rsatadigan munosabatini ifodalaydi.

Faoliyat jarayonida qiziqishning ahamiyati nihoyatda katta. Subyektiv ravishda qiziqish bilish jarayoniga xos ijobiy hissiy yo'nalishda, obyekt bilan chuqurroq tanishish istagida aks etadi. Qiziqishlarning yuzaga kelishida ularning dastlabki shakllanish bosqichi jiddiy ahamiyatga ega, buning uchun esa qulay vaziyatlar bo'lishi kerak. Shu sababdan konstruktiv xususiyatli qiziqishning saqlab qolinishi va yanada rivojlanishida maqsadli pedagogik faoliyat muhim o'rin tutadi.

Bunday qiziqish ma'lum qobiliyat nishonalari bilan, shuningdek, o'quvchilarni rag'batlantirish, ularga ijobiy munosabatda bo'lish bilan qo'llab-quvvatlanadi.

Turg'un va asosli qiziqishning paydo bo'lishi uchun o'quvchi ish maqsadini aniq tushunishi, nimadan kelib chiqib nimaga tomon ketayotganligini, qanday natijaga erishmog'i lozimligini bilishi shart. Ishning maqsadlari uzoq bo'lishi ham mumkin, yaqin ham. Uzoq maqsadlarni ancha yaqin, bajarilishi oson maqsadlarga taqsimlash lozim. Agar ishning bevosita maqsadi qiziqarsiz, katta quvvat talab etish bilan bog'liq bo'lsa, ularni bilvosita, bola uchun qiziqarli maqsadlar bilan bog'lash kerak bo'ladi [56].

Qiziqishni shakllantirish va saqlab qolishda faoliyatdagi muvaffaqiyat katta ahamiyatga ega. Ishdan qoniqish hosil qilishga olib keladigan hamma narsa qiziqish uyg'otadi va uni saqlab qoladi. Qiziqishni qo'llab-quvvatlab turish uchun mehnat va dam olish to'g'ri uyg'unlashtirilishi lozim. Har qanday ish, hatto eng zavqlisi ham kishini charchatadi. Toliqish va charchoqdek yoqimsiz hisni yengib o'tish uchun ishning xususiyatlari va usullarini navbatlash foydali bo'ladi. Bolalarda o'qishga qiziqish uyg'otish va uni saqlab qolish uchun o'qituvchining o'qishga, o'qitish faoliyatiga qiziqishi kuchli bo'lishi zarur. Agar o'qituvchi o'z mehnatiga haqiqiy ijod, ilhom va ehtiros bilan qarasa, u bu kayfiyatni bolalarga ham singdiradi. Agar o'qituvchi o'z ishiga rasmiyatchilik nuqtai nazaridan qarasa, u holda o'quvchilardan ham o'quv ishiga qiziqish kutish mumkin emas. O'qishga qiziqishni butun jamoada, guruhda uyg'otish zarur. Agar butun guruh bilish ishtiyoqi bilan yashasa, alohida o'quvchini o'qishga qiziqtirish osonroq kechadi [12, 17, 25, 45, 80].

Ijodkorlikning pirovard mahsulini yaratishdek og'ir mehnat, shubhasiz, tushkunlik kayfiyatini olib keladi, shu sababli barqaror qiziqish uchun motivlar sohasi ijoddagi salbiy holatlar hamda to'siqlarni yengishda hal etuvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Ijobiy hislar bilan rag'batlantirilmaydigan intilishlar uzoq muddat o'qishga qiziqishni motivlashi, u yoki bu turdagi xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlashi mumkin emas. Charchoq holatida paydo bo'ladigan loqaydlik yoxud

salbiy hissiyotlarning yuzaga kelishi intilishni kuchaytira olmaydigina emas, balki qo'zg'alish jarayonini susaytiradi, yo butunlay to'xtatadi. Demak, qiziqishlarning barqarorligi malaka, qobiliyatlar, iroda kabi faoliyatning biror sohasida katta samaradorlik, takomillashuvning yuqori darajasiga erishish sharti hisoblanadi [73].

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar qiziqishlarining rivojlanish dinamikasini o'rganadigan ko'pgina mualliflar uning zinapoyasimon shaklga ega ekanligini qayd etadilar. Dastlab 7-8 yoshli bolalarning qiziqishlari o'zgaruvchan, sust tabaqalashgan bo'ladi. 9-10 yoshlarda mustaqillik ortgani sayin bolalarni o'quv ishida bevosita ijod bilan, aqliy faoliyatning kuchayishi bilan bog'liq narsalar qiziqitira boshlaydi. Lekin bu yoshda, odatda, faoliyatning eng oson sohalariga qiziqishlar namoyon bo'ladi va ular yetarlicha chuqur emas. Ko'proq alohida harakatlarni bajarish jarayoniga yo'nalish bilan bog'liq qiziqishlar uchraydi, yengilroq ishga moyillik ham saqlanib turadi [46].

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining qiziqishlari, odatda, maroqlilikni taqozo etadi. O'yinli daqiqalari bo'lgan, o'quv materialini hayajon bilan taqdim etiladigan darslar ularni ko'proq o'ziga jalb qiladi. Ayni vaqtda muvaffaqiyatga erishishning motivlari bilan jazodan qutulish, ancha yengil o'quv ishi turlariga intilish motivlari orasidagi bog'liqlik mustahkamlanadi. 10 yoshgacha bo'lgan bolalarni harakatli o'yinlar qiziqitiradi. O'yin faoliyati jarayonida alohida musobaqalar, bellashuv xususiyatiga ega bo'lgan topshiriqlar ustuvor bo'ladi. 11-14 yoshlar orasidagi o'quvchilar o'zlari ko'ngillariga yoqqan mashg'ulotni tanlab olish, shu orqali o'zlarining mustaqillikka, bilishga ehtiyojlarini qondirishlari mumkin. Shu bilan birga, o'qish va sportdagi muvaffaqiyatlar o'z o'rniga ega bo'lish vositasi hisoblanadi. 15-16 yoshlar oralig'ida ehtiyojlarning mazmuni turlicha bo'lib, ular yigit yoki qiz tarbiyalanayotgan oila turmushining qanday tashkil etilganligiga, atrof-muhitga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bu yoshda jismoniy barkamollikka intilish juda kuchayadi, u shaxsning jiddiy zo'riqishlarini talab qiluvchi jismoniy yuklamalar orqali amalga oshadi [60, 61, 62].

Ko'pgina sport psixologlarining ta'kidlashicha, jismoniy tarbiyaga bo'lgan qiziqish avval o'zining kengligi bilan tavsiflanadi, ya'ni ko'pgina sport turlarini qamrab oladi, shundan keyingina ixtisosligini namoyon qiladi, ya'ni ma'lum bir sport turiga maxsus qiziqish kuchayadi [130].

Qator mutaxassislarning qayd etishiga ko'ra [59, 65], o'qituvchi jismoniy tarbiyani targ'ib qilish, o'z faniga qiziqishni shakllantirish ishlarini o'quvchilarning jismoniy tarbiyaga qiziqish sabablarini hisobga olgan holda, aniq maqsadga yo'naltirib tashkil etishi lozim. Odatda, o'quvchilarning har xil dasturiy materiallarga qiziqishlari ham turlicha bo'ladi. Quyi sinflarda o'g'il bolalar sport o'yinlariga, qizlar esa harakatli o'yinlarga ko'proq qiziqadilar. Dasturdagi boshqa turlar o'quvchilarga kamroq yoqadi. Agar jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish maqsadi mavjud bo'lsa, jismoniy tarbiyaga qiziqish ko'proq darajada saqlanib qoladi. Maqsad uzoq muddat saqlanishi uchun jismoniy tarbiya o'qituvchisi yoki murabbiyning vazifasi o'quvchilarda maqsad sari intiluvchanlikni shakllantirishdir. Vaqt nuqtai nazaridan uzoqdagi maqsadga yetishishga intilish, agar u o'quvchi uchun katta ahamiyat kasb etsa, uning qiziqish va ehtiyojlariga javob bersa hamda bu maqsadga erishish mumkin bo'lsagina, yuzaga kela oladi.

Bob bo'yicha xulosa

Adabiyot manbalarini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, kurashning har xil turlari bo'yicha BO'SM da boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida shug'ullanuvchilar kontingentini saqlab qolish hamda saralanib chiqib ketishlar darajasini pasaytirishga shu qadar jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi muammoni chuqur tadqiq etish zarurligi ko'pchilik mualliflarning fikri. Ilmiy tadqiqotlar yosh sportchilarda sport kurashi mashg'ulotlariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga hos bosqichlarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi.

Mazkur masalaning tadqiq etilishi holatini tahlil qilish natijasida shunday xulosa chiqarish mumkin: boshlovchi sportchida motivlarni shakllantirish muammosi sport faoliyati va, eng avvalo, murabbiyning hamda butun BO'SM pedagoglari jamoasi faoliyatining markaziy muammosiga aylanishi mumkin.

Ma'lum bo'lyaptiki, sportni tashlab ketadigan talabalar sonini qisqartirish hamda BO'SM o'quvchilari kontingentini saqlab qolish umumijtimoiy ahamiyat kasb etib, yosh sportchilarda sport mashg'ulotlariga qiziqishni shakllantirishning yana ham ta'sirchan va samarali yo'llarini ishlab chiqishga undaydi.

2-BOB. TADQIQOTNING VAZIFALARI, USULLARI HAMDA UNI TASHKIL ETISH

2.1. Tadqiqotning vazifalari

1 kurash bo'yicha BO'SM boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarini o'quvchilarining sportni tashlab ketishi sabablarini aniqlash.

2. o'quvchilarida kurash mashg'ulotlariga qiziqish hamda motivlarning rivojlanish dinamikasini ochib berish.

3. Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarini kontingentini mustahkamlash va ularda sportga barqaror qiziqishni shakllantirishga yordam beruvchi ukuv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha pedagogik tadbirlar majmuasini ishlab chiqish hamda tajribalarga tayanib asoslab berish.

2.2. Tadqiqotning usullari

Quyidagi vazifalarni hal etish uchun quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

1. Maxsus ilmiy-usuliy adabiyotlardan olingan ma'lumotlarni nazariy tahlil qilish va ularni umumlashtirish.

2. So'rovnoma yordamida BO'SM murabbiylari amaliy tajribasini tahlil etish.

3. o'quvchilari faoliyati ustida pedagogik kuzatuv olib borish.

5. Tadqiqot natijalarini matematik-statistik jihatdan tahlil etish.

2.2.1. Maxsus ilmiy-usuliy adabiyotlardan olingan ma'lumotlarni nazariy tahlil qilish va ularni umumlashtirish

Mazkur usul dissertasiyaning barcha vazifalarini hal etish uchun universal hisoblanadi. Tadqiqotning vazifalarini belgilash hamda olingan natijalarini muhokama qilish chog'ida bu usul maqsadni aniqlashtirishda ham eng asosiylaridan biri bo'ldi, tadqiqotning ishchi farazini shakllantirish hamda ayrim nazariy xulosalarni asoslash imkonini berdi.

2.2.2. So'rovnoma yordamida BO'SM murabbiylari amaliy tajribasini tahlil etish

Ilg'or amaliy tajriba bilan tanishish va uni umulashtirish maqsadida Samaqand shahar XTBga qarashli BO'SM murabbiylari orasida so'rovnoma asosida savol-javob o'tkazildi. Bu usul eng qulay hamda maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki u tekshirilayotgan masalaning dolzarblik darajasini aniqlashga yordam beradi (27,72).

2.2.3. Kurash turlari misolida o'quvchilarining o'quv-mashg'ulot jarayonidagi faoliyati ustida

pedagogik kuzatuv olib borish

Tabiiy pedagogik jarayon to'g'risida ma'lumotlar olish, o'quvchilar haqida dastlabki axborotlarni yig'ish, tadqiqot farazi usuliyatini aniqlashtirish maqsadida pedagogik kuzatuvlar olib borildi.

Pedagogik tajriba o'tkazishning asosiy bosqichlari:

I bosqich (2012-2013) - mazkur mavzu bo'yicha ilgari e'lon qilingan ishlarni sinchiklab nazariy tahlil qilish; hal etilmagan muammolarni aniqlash; mazkur tadqiqot mavzusini tanlash; tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilash; mazkur muammoni hal qilish bo'yicha haqiqiy amaliyotni o'rganish; sport mashg'ulotlari nazariyasi hamda amaliyotida o'rganilayotgan muammoni hal etishga yordam beradigan mavjud chora-tadbirlarni o'rganish; tadqiqot farazini shakllantirish.

II bosqich (2013-2014) asosiy ishlab chiqilgan usuliyatning samaradorligini tekshirish uchun ilmiy tajribalar o'tkazishga yo'naltirilgan. Bu bosqich quyidagi tadbirlardan iborat: tajriba o'tkazilayotgan doiradagi tizimning dastlabki holatini o'rganish (o'quvchilarning qadriyatlarga munosabatini shakllantirish bosqichlari aniqlandi); tajriba o'tkazilayotgan sharoitlarning dastlabki holatini o'rganish; taklif etilgan o'lchamlar tizimining samaradorligi mezonlarini ta'riflab berish; tajriba ishtirokchilariga uni o'tkazish tartibi hamda samaradorligi shartlari yuzasidan ko'rsatmalar berish; tajribaning muayyan vazifasini hal etish bo'yicha muallif taklif etayotgan tadbirlar tizimini amalga oshirish; tadbirlarning tajriba tizimi ta'siri ostida obyektlarning o'zgarishini tavsiflovchi oraliq kesimlar asosida tajribaning borishi to'g'risida ma'lumotlarni qayd etish; tajriba o'tkazish davomida yo'l qo'yish mumkin bo'lgan tipik kamchiliklar hamda qiyinchiliklarni ko'rsatish; vaqt, mablag'lar hamda kuchning joriy sarfini baholash. yakunlovchi tajribalar asosida chiqariladigan xulosalarni umulashtirishga yo'naltirilgan: tadbirlarning tajriba tizimini amalga

oshirish natijalarini bayon etish (qadriyatlarga munosabatni shakllantirish darajasining yakuniy holati); tajriba ijobiy natijalar bergan sharoitlarni ta'riflash; tajriba ta'siri o'tkazilayotgan subyektlar (o'quvchi va murabbiylar) xususiyatlarini bayon etish; vaqt, kuch hamda mablag'lar sarfi to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash; tajriba davomida tekshirilgan tadbirlar tizimini qo'llash chegaralarini ko'rsatish (58).

3-BOB. O'QUVCHILARNING SPORTNI TASHLAB KETISHIGA XOS XUSUSIYATLAR VA MASHG'ULOT JARAYONINI TASHKIL ETISH

3.1. o'quvchilarning sportni tashlab ketishi sabablari

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish asnosida (1-bob) ma'lum bo'ldiki, BO'SM faoliyati samaradorligini oshirish yo'llaridan biri yosh sportchilar bilan mashg'ulotlarni vaqtdan ilgari to'xtatib qo'yish sabablarini izlab, ularni bartaraf etishdan iborat. Sport maktabi kontingentining sportni tashlab ketishi sabablarini turli vaqtlarda o'rganish orqali quyidagi qarorga keldik: yosh sportchilarning maktabdan bunday ketishi manbalarini, eng avvalo o'quv-mashq jarayoni hamda tarbiyaviy ishlarning sifatsiz tashkil etilishi sohasidan izlash kerak. Demak, o'quvchilarning BO'SM dan ta'limni yakuniga yetkazmay ketib qolishlarini murabbiy-o'qituvchilar tarkibi faoliyatidagi kamchiliklar sirasiga kiritish mumkin. Bu holatda ketish butun BO'SM faoliyati sifatining mezonini bo'lib maydonga chiqadi, sportni tashlab ketish dinamikasi esa ko'p yillik tayyorgarlikni tashkil etishdagi eng zaif nuqtalarni ko'rsatadi.


Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, murabbiylarning yosh sportchilar bilan ish olib borishdagi eng tor, bo'sh joylarini aniqlab olish juda muhim edi. Maktabni tark etish eng ko'p kuzatiladigan yosh chegaralarini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi, lekin o'quvchilarning ikki xil toifasi sport maktabida mustaqil o'rnashgan hamda sportni tashlab ketadiganlar (o'z xohishi bilan) kontingentining boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga xos xususiyatlardan kelib chiqib o'zaro aloqadorligini tekshirishga diqqat qilindi.

BO'SM o'quvchilari davomat jurnalidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi va kurashchilarning yoshiga ko'ra ularning sportni tashlab ketishi bilan bog'liq muayyan, mutlaqo qonuniyatli yo'nalishlarni aniqladik.

3.1.-rasmda diagramma ko'rinishida BO'SMda boshlang'ich tayyorgarlik yillari bo'yicha o'quvchilarning chiqib ketish dinamikasi taqdim etilgan. Qator tadqiqotchilar ilgari aniqlagan bolalarning sport maktabi boshlang'ich tayyorgarlik guruhlaridan ommaviy ravishda ketib qolishi tendensiyasi tasdiqlandi. Haqiqatan,

sport maktabidagi o'qishini tark etgan o'quvchilar umumiy miqdoriga nisbatan foiz hisobida oladigan bo'lsak, eng tang davr - boshlang'ich ta'lim bosqichidagi yil sanaladi. Mashg'ulotlar boshlanganidan keyin o'tgan dastlabki uch oy muddatda boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida ro'yxatdagi bolalarning 36% i darslarga kelmay qo'ydi. Birinchi o'quv yili oxiriga kelib BO'SM da yana 60% o'quvchi shug'ullanishni to'xtatib qo'ydi.

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida bolalarni sportni tashlab ketishi haqida



1-rasm. bolalarning 1,2,3-o'quv yillarida sportni tashlab ketishi dinamikasi.

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida (BTG) ikkinchi o'quv yilida o'quvchilar kontingentining nisbatan barqarorlashuvi kuzatiladi, biroq biz 48% tashlab ketishning guvohi bo'ldik. Keyingi uchinchi o'quv yili davomida BO'SM dan chiqib ketish o'quv yili boshidagi shug'ullanuvchilar ro'yxatiga nisbatan 33% ni tashkil etdi.

Demak, sportchilarning sportga kirib kelish va uni tark etish motivlari haqidagi masala juda muhim.

3.2. Turlicha yosh kurashchilarining qiziqishlari rivojiga xos xususiyatlar tahlili


Ishlab chiqilgan so'rovnomalar asosida boshlang'ich sport tayyorgarligi guruhleri o'quvchilari, ularning ota-onalari, shuningdek, murabbiylarning kattagina guruhi fikri o'rganildi. Boshlang'ich ta'lim va boshlang'ich sport ixtisoslashuvi guruhleri kontingentlari orasida aniq yosh chegaralari bo'lmaganligi uchun bolalar orasida o'tkazilgan savol-javob natijalari 3.2-jadvalda bitta umumiy yig'ma ostida berilgan.

3.2-jadval

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhleri bolalarining so'rovnomaga javob berish natijalari (% da)

Savollarning aspektlari	
Sport kurashi mashg'ulotlariga borish qiziq	85
Kurash tushishni yaxshi o'rganish istagi	76
Kurashda takomillashuv istagi	78
Musobaqalarda ishtirok etish yoqadi	65
Murakkab topshiriqlarni bajarishga tayyormiz	62
Chempion bo'lish istagi	77
Mashg'ulot - yoqimli vaqt o'tkazish yo'li	83

O'quvchilarni kurash mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishlar doir motivlari jamlanmasi



Barcha savol-javobda qatnashgan bolalar (30 o'g'il bola) ular uchun kurash mashg'ulotlariga borish qiziqarli ekanini, yaxshi kurashishni o'rganishga intilayotganliklarini, murabbiy bilan muloqot qilish va guruh bilan birgalikda ishlash o'zlariga yoqishini (100 % ijobiy) ta'kidlaganlar. Hamma bolalar texnik-taktik tayyorgarlikda takomillashuvni davom ettirish, kurashning turli usullarini o'rganish istagini bildirganlar. Biroq birmuncha aniq qo'yilgan savollarga javoblar bunday bir xil bo'lmadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'z istaklari va, ayniqsa, qiziqishlariga xolis baho bera olmasligini ularning deyarli barchasida (98,8%) chempion bo'lish istagi borligi fakti tasdiqlaydi.

Pedagogik kuzatuvlardan ma'lum bo'lishicha, alohida ishlash 9-10 yoshli bolalarga to'g'ri kelmaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu yoshdagi bolalar o'z tengdoshlari va murabbiy bilan muloqot qilishga ehtiyoj sezadilar.

Bolaning kurash bilan shug'ullanishni davom ettirishga qaror qilishida murabbiy shaxsi eng muhim jihatlardan biri sanaladi.

8-10 yoshli bolalarda murabbiyga to'la ishonchning mustahkamlanishi kuzatiladi. Shaxsiy yoqtirish, uning murabbiyidan yaxshisi yo'qligiga qat'iy ishonish,

bolalarcha yaxshi ko'rish va murabbiy bilan muloqot qilishga intilish, o'z murabbiyiga bog'lanib qolish yosh kurashchilarda shu qadar kuchliki, murabbiyning qisqa muddatga, ayniqsa, butunlay almashtirilishi bolaning kurashdan ketish qarorini qabul qilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3.3-jadval

O'quvchilar nazarida murabbiyning eng muhim shaxsiy sifatleri nisbati (% da)

Savollar aspekti	
Murabbiyni yoqtiradi	92
Qattiqqo'llik va talabchanlik	64
Ichki intizom, va'daga vafolilik, e'tiborlilik	71
Sezgirlik, yordamga tayyor turish	75
Halollik, to'g'riso'zlik	89
Murabbiyga to'la ishonadilar	79

10-11 yoshli sportchilar uchun murabbiyning tashqi ko'rinishiga qaraganda uning qattiqqo'l va talabchan bo'lishi muhimroq. Shuningdek, murabbiyning xayrixohlik, halollik va to'g'riso'zlik kabi fazilatleri ham juda muhim hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar murabbiyning ichki sifatlarini ko'proq qadrlaydilar, uning e'tiborliliigi, o'zini tutishining to'g'riligiga shubha qilmaydilar, ular murabbiyning obro'-e'tibori, to'g'riso'zligiga ishonadilar, uning siyomosida qattiqqo'l va talabchan pedagogni ko'rishni istaydilar.

O'tkazilgan tadqiqotlar sportchilarning qiziqishlari hamda kurash mashg'ulotlariga qatnash xohishini paydo qiluvchi eng muhim motivlar, tayyorgarlik jarayonida yosh kurashchilarda, ularning murabbiyi va ota-onalarida bu motivlarning almashinishi bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish imkonini berdi (3.4-jadval).

Bolalarning sport maktabida qolishida ota-onalarning bunga qiziqishi katta ahamiyatga ega. Farzandlari kurash bilan shug'ullanishni to'xtatib qo'ygan ota-onalar orasida so'rov o'tkazish organizmning rivojida, shaxsning shakllanishida, umuman,

kundalik turmushda sportning nechog'li katta ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida ularning bilimlari nihoyatda cheklanganligini ko'rsatdi.

Ota-onalarning bunday loqaydligi farzandlarining sport bilan shug'ullanishlaridan boxabarligi holatida ham namoyon bo'ladi. Masalan, 25% ota-ona kurash zaliga hech qachon kelmagan, farzandining murabbiyi bilan tanishmagan, uning muvaffaqiyatlari bilan qiziqmagan. Lekin ota-onalarni uy sharoitida uchratganimizda, ularning ko'pchiligi bolasining qiziqishiga ijobiy qarashi ma'lum bo'ldi. Bolaning kurash mashg'ulotlariga qatnashmayotganligiga asosiy sabab qilib ota-onalar uning qiziqishi so'nganligini ko'rsatishdi (85%). Afsuski, biror ota-ona bu nima uchun sodir bo'lganiga qiziqmagan. Faqat ayrim ota-onalar (15%) birmuncha aniq sabablarni ayta olganlar. So'rovnoma asosidagi savol-javoblardan ham ko'pgina ota-onalarning o'g'li uchun sport kun tartibi qanchalik muhim ekanligini anglamasligi ma'lum bo'ldi. Masalan, bola maktabida fanlarni o'zlashtirilmasa, unga eng keng tarqalgan jazo, sport mashg'ulotlariga borishni taqiqlab qo'yish hisoblanadi, kurash bu yerda yaxshi yoki qoniqarli o'qishga halal beradigan omil sifatida maydonga chiqadi. Umuman, so'rov o'tkazish natijasida ma'lum bo'ldiki, o'g'lining sport bilan shug'ullanishiga ota-onalarning munosabatini passiv-ijobiy deb atash mumkin.

3.4 – jadval

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida o'quv yiliga ko'ra kurash bilan shug'ullanishga turli motivlarning ahamiyati

O'quv yili	Bolalar	Ota-onalar	Murabbiylar
Birinchi yil	1.Kurash tushishni o'rganish. 2.Guruhda yoqimli vaqt o'tkazish, birgalikdagi mashg'ulotlar	1.Salomatlikni mustahkamlash. 2. O'z-o'zini himoya qilish elementlarini o'zlashtirish. 3.Bo'sh vaqtni	1. Kurash mashg'ulotlariga qiziqishni singdirish. 2. Iqtidorli bolalarni izlash.

		foydali o'tkazish.	
Ikkinchi yil	<p>1. Kurash usullarini texnik jihatdan to'g'ri bajarishni o'rganish.</p> <p>2. G'alaba va raqobatga intilish.</p> <p>3. Murabbiy va guruhdagi o'rtoqlar bilan muloqot.</p>	<p>1. Bola sog'lig'ining mustahkamlanishi va jismoniy rivojlanishi.</p> <p>2. Sport kurashi jismoniy sifatlarni rivojlantirish manbai sifatida.</p> <p>3. Kurash mashg'ulotlarida bolaning qiziqishi va muvaffaqiyatlari.</p>	<p>1. Kurash usullarini to'g'ri bajarishga o'rgatish.</p> <p>2. Qobiliyatli bolalarni kurash mashg'ulotlariga saralab olish.</p> <p>3. Kurashga qiziqishni singdirish.</p> <p>4. Bolalarning jismoniy rivojlani-shiga yordam berish.</p>
Uchinchi yil	<p>1. Yoshlar musobaqalarida muvaffaqiyatli chiqish.</p> <p>2. Boshqa shaharlarga musobaqaga borish.</p> <p>3. Mashg'ulotlardan ma'naviy va jismoniy qoniqish.</p> <p>4. Jamoada va murabbiy bilan do'stona munosabat.</p>	<p>1. Sportda yuqori natijalarga erishish imkoniyati.</p> <p>2. Nazorat ostida bo'sh vaqtni foydali o'tkazish.</p> <p>3. Salomatlikni mustahkamlash va jismoniy rivojlanish.</p> <p>4. Murabbiy – obro'li shaxs va ustoz.</p>	<p>1. Sportchining texnik jihatdan takomillashuvi.</p> <p>2. Sportchiga xos fe'l-atvor, intizom va mehnatsevarlikni tarbiyalash.</p> <p>3. Jamoaning jipslashuvi.</p> <p>4. Sport kurashi mashg'ulotlariga turg'un qiziqishlarni shakllantirish.</p>

So'rovnomada asosidagi savol-javoblardan ham ko'pgina ota-onalarning o'g'li uchun sport kun tartibi qanchalik muhim ekanligini anglamasligi ma'lum bo'ldi. Masalan, bola maktabida fanlarni o'zlashtirmasa, unga eng keng tarqalgan jazo, sport mashg'ulotlariga borishni taqiqlab qo'yish hisoblanadi, kurash bu yerda yaxshi yoki qoniqarli o'qishga halal beradigan omil sifatida maydonga chiqadi.

3.3. Murabbiylarning amaliy faoliyatida kasbiy ko'rsatkichlarini tahlil etish

Tadqiqotlar orqali, bir tomondan, kichik yoshdagi kurashchilarning o'z murabbiyiga so'zsiz ishonchi namoyon bo'lishi, ikkinchi tomondan, o'quvchilarning sportni tashlab ketishi kurash bilan shug'ullanishning aynan dastlabki yillarida sodir bo'lishi aniqlandi. Bolalarda motivasiya sohasining yetilmaganligi, ularning sport bilan shug'ullanishi haqiqiy motivlarni shartli ravishda anglash, sportga qiziqishlarining bo'sh va beqarorligi sharoitida, aftidan, BO'SM kontingentini mustahkamlash hamda sportni tashlab ketishlar darajasini pasaytirishning hal qiluvchi sharti qo'llaniladigan mashg'ulot vositalari hamda pedagogik ta'sir usullarining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi hisoblanadi.

Samarqand shahri BO'SM 14 nafar murabbiyi faoliyatini kuzatish hamda ularning so'rovnomadagi javoblarini o'quv-mashg'ulot va musobaqa jarayoni amaliyoti bilan solishtirish kasbiy talablarni bilish va ularni amalga oshirish orasida jiddiy ziddiyatlar mavjudligini ochib berdi (3.6-jadval). Garchi kurash sohasida malakali murabbiy-pedagoglar ishlayotgan bo'lsa ham, ularning sport ko'nikmalarini o'rgatish, turli yosh guruhlariga mansub kurashchilarni tayyorlash, tarbiyalash usullari to'g'risidagi bilimlarni amalda zarur tarzda qo'llanilmas ekan.


Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarini tashkil etishda murabbiylar, odatda, yosh chegaralariga e'tibor bermaydilar. Shu bilan birga, OZIBO'SM larda sport zahirasi bilan ishlayotgan ko'pgina murabbiylar (mintaqalarning murabbiylari) fikricha, BTG ga qabul qilish uchun eng maqsadga muvofiq'i 10 yosh (56,2%) va 11 yosh (37,5%). Oddiy BO'SM murabbiylari sport mashg'ulotlarini boshlash uchun eng optimal yosh 11 (54,5%) va 12 (27,3%) yoshlar ekanligini qayd etganlar. BO'SM murabbiylarining boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarini davomat jurnallarini tekshirish chindan ham BTG dagi ko'pchilik bolalar (50% gacha) 10 yoshda ekanligini tasdiqladi. Biroq shug'ullanuvchilar miqdori bo'yicha ikkinchi o'rinda 9 yoshli bolalar kontingenti turadi (37,5%).

Masalan, barcha murabbiylarning 68,8% qismi yoshga ko'ra bu tafovutlar amalda 3 yilga yetishini, 31,2% esa 2 yilgacha ekanligini ko'rsatganlar.

BO'SM murabbiylarining ko'pchiligi (75% gacha) bitta guruhga bolalarni qat'iy ravishda yosh mezonlariga ko'ra qabul qilish mumkin emasligini qayd etganlar. Ko'pgina murabbiylar bu kontingentning yosh chegaralari, odatda, 2 yilni tashkil etishini ta'kidlaganlar (75%). Amaldagi tekshiruv esa bir o'quv yilidagi BTGda yosh tafovutlari 4 yilga yetishi mumkinligini aniqladi. Chindan ham, ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida sportni tashlab ketish tufayli miqdoriy tarkibi muntazam kamayib turadigan guruhlar kichik yoshli bolalar hisobiga to'ldirib boriladi. Yangi qabul qilingan o'quvchilar, odatda, guruhning asosiy kontingenti tayyorgarlik darajasiga mos kelmaydi, shunday bo'lsa ham, ular ancha tayyorgarlik ko'rgan katta yoshli kurashchilarning mashg'ulotlariga darhol kirishishga majbur bo'ladilar.

3.6-jadval

Murabbiylarni yoshga qarab guruhlarini shakllantirish taffavudlari.



Boshlang'ich o'rgatish bosqichida mashg'ulotlar uchun ota-onalarning haq to'lashini, BTGda qisman haq to'lashni joriy qilish shunga olib keladiki, guruhlarini shakllantirish ko'pincha tasodifiy kontingent bilan belgilanadi, bunda bolalarning sport turiga qobiliyati bor-yo'qligi u qadar e'tiborga olinmaydi.

Birinchi o'rgatish yilida sport maktabida, agar tibbiy tekshiruvning e'tirozi bo'lmasa, barcha xohlovchilar shug'ullanadilar. Lekin bolalarni boshlang'ich sport ixtisoslashuvi bosqichiga o'tkazish vaqtida murabbiylar saralashni mavjud me'yorlar asosida maxsus tadbir sifatida ba'zi-ba'zidagina amalga oshiradilar (3.6-jadval).

Murabbiylarning javoblari hamda boshlang'ich o'rgatish guruhlarida mashg'ulot jarayoni mazmunini kuzatish mashg'ulotlarning birinchi yillaridanoq sport tayyorgarligining yaqqol jadallashtirib olib borilishini ko'rsatadi. Boshlang'ich tayyorgarlikni jadallashtirish faktlari sirasiga bolalarni mashg'ulot jarayoniga erta olib kirish (8-9 yoshda); mashg'ulot topshiriqlari hajmining yosh mezonlariga muvofiq kelmasligi; bolalar bilan mashg'ulotlarda ishning o'yin shakllaridan foydalanmaslik va mashqlarning bir xil usulidan ustuvor foydalanish kabilar kiritilishi mumkin (3.7-jadval).


3.7-jadval

Murabbiy-o'qituvchilar tarkibi orasida o'tkazilgan so'rov va ularning amaliy faoliyatini kuzatish natijalari (boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida mashg'ulot jarayoni xususiyatlari)

Savollarning aspektlari		So'rovnoma o'tkazish		Kuzatish-lar	Tafovutlar (%) , N=8
		N=32	N=8		
1. O'yin topshiriqlari ustuvorligi	Ha	65,5	25,0	12,5	-12,5
	Yo'q	34,5	75,0	87,5	+12,5
2. UJT bo'yicha mashg'ulotlarning mavjudligi	Ha	43,7	37,5	25,0	+12,5
	Yo'q	56,3	62,5	75,0	-12,5
3. Murabbiyning shaxsiy vaqti hisobiga alohida ish olib borish	Ha	75,0	62,5	62,5	-
	Yo'q	25,0	37,5	37,5	-

Ayniqsa, kurash bo'yicha BO'SM uchun tavsiyalar va dasturiy hujjatlar, murabbiylarning darsda qo'llanadigan mashqlarning zarur hajmi to'g'risidagi javoblari bilan boshlang'ich sport ixtisoslashuvi bosqichida mashg'ulot darslarini o'tkazish amaliyoti orasidagi nomuvofiqlik ko'p uchraydi.

Мураббий-ўқитувчилар таркиби орасида ўтказилган сўров ва уларнинг амалий фаолиятини кўзатиш натижалари (бошланғич тайёргарлик Гуруҳларида машғулот жараёни хусусиятлари)



Yosh sportchilar tayyorgarligining jadallashtirilishini murabbiylar ko'pincha sportchining umumta'lim maktabini tugatish vaqtiga kelib sport natijalari cho'qqisiga erishishi zarurati bilan izohlamoqchi bo'ladilar. Murabbiyning sportchi tomonidan maktabni bitirish vaqtida yuqori natijalar ko'rsatishga muvaffaq bo'lish xohishi, bir tomondan, uning sport bilan aloqador bo'lmagan o'quv yurtiga kirib, sport takomillashuvi bosqichida mashg'ulotlarni to'xtatib qo'yishidan cho'chishi bilan bog'liq.

Pedagogik kuzatuvlar bolalar sport maktabida tarbiyaviy hamda ta'limiy-ma'rifiy ishlarning zaif tashkil etilganligini ochib berdi (3.8-jadval).

3.8-jadval

Murabbiylar orasidagi so'rov va ularning amaliy faoliyatini kuzatish natijalari

Savollarning aspektlari		So'rovnoma o'tkazish		Kuzatish-lar	Tafovut-lar
		n=32	n=8		
1. Nazariy mashg'ulotlarni	Ha	100	100	12,5	87,5
	Yo'q	0	0	87,5	12,5
2. Qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil etish	Musobaqalar (rejadan tashqari)	12,5	37,5	37,5	0
	Sport bayramlari	6,2	25,0	25,0	0
	Sayohatga	25,0	25,0	25,0	0
	Boshqa shakllar	18,7	-	-	-
	O'tkazmagan	21,6	12,5	12,5	0

So'rovning holisligi har qancha shartli bo'lmasin, murabbiylarning pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari hamda usullarini qo'llashidagi cheklanganlik diqqatni o'ziga tortadi.

Murabbiyning o'quvchilar bilan asosiy muloqot qilish usuli oldindagi mashg'ulotning xususiyatlari haqida ko'rsatmalar shaklida tushuncha berish (pedagogik tadbirlarga ajratilgan vaqtning 60 % dan ortiq qismi). Bolalar bilan suhbatlar (30%), hikoya qilib berish (10%) kam o'tkaziladi. Nazariy tayyorgarlik va maxsus tarbiyaviy yo'nalishdagi mashg'ulotlar umuman o'tkazilmaydi. Ayni vaqtda barcha murabbiylar (100%) nazariy mashg'ulotlarni muntazam o'tkazib borishlarini ko'rsatganlar. Suhbatlar chog'ida sportning rivojlanish tarixi, zamonaviy sport va dunyoning eng kuchli kurashchilarini tayyorlash tajribasi, ularning sport hayoti kabi mavzularga deyarli murojaat qilinmaydi. Xuddi shunga o'xshash, murabbiylar sog'lom turmush tarzi, kurash mashg'ulotlarining organizm rivojiga ko'rsatadigan ta'siri haqidagi suhbatlarni olib bormaydilar, faol targ'ibotchi sifatida ish ko'rmaydilar, ularning ko'pchiligi (68%) o'quv-mashg'ulot soatlaridan tashqari biror tadbir o'tkazmaydilar, murabbiylarning arziyas bir qismigina sayohatlar, sport bayramlari va boshqa tadbirlarni tashkil etib turadi.

Shunday qilib, so'rovnoma o'tkazishning o'zi hamda murabbiylar tomonidan mashg'ulotlarni tashkil etish ustida olib borilgan pedagogik kuzatuvlar shuni

ko'rsatdiki, o'quv-mashg'ulot jarayonida bir xildagi mashg'ulot topshiriqlari ustuvor; mashq jadallashtirib o'tkazilayotgan tayyorgarlikning vositasi va asosiy usuli bo'lib qolgan. Yosh sportchilarni tayyorlashda psixologik-pedagogik usullarga deyarli ahamiyat berilmaydi. Tarbiyaviy ishlarning darajasi past; o'yin yo'nalishiga ega bo'lgan mashg'ulotlar foizi juda kichik – 5%, nazariy mashg'ulotlarni tarbiyaviy-ta'limiy xususiyatli boshqa ish shakllari kabi bor-yo'g'i 10% murabbiylargina amalga oshiradilar. O'quv-mashq guruhlari o'quvchilari bilan ish olib borishning usuli va shakli sifatidagi individuallashtirish faqat mashg'ulot topshiriqlarini bajarish jarayonidagina kurash texnikasi bo'yicha e'tirozlar yoki baqirish ko'rinishida ro'yobga chiqariladi.

Murabbiylar faoliyatini pedagogik kuzatish va xronometraj o'tkazish mashg'ulotlarning bayonnomalarini tuzish imkonini berdi, ularni tahlil etish sport mashg'ulotlarining qo'llanilayotgan vosita va usullari cheklanganligini yana ham ko'proq tasdiqladi. Ayni paytda murabbiyning ishga mohirona munosabati bilan (mashg'ulotning zichligi, o'z vaqtida boshlash, tanaffuslar miqdori, intizomni buzish) bolalarning mashg'ulotlarga qatnashishi orasida aniq bog'liqlik ko'zga tashlanadi. Masalan, yuqori davomat – 100% gacha mashg'ulotlari zichligining kattaligi hamda qo'llaydigan vosita va usullarining rang-barangligi bilan ajralib turadigan murabbiylar uchun xos. Mashg'ulotlarda muntazam ravishda bir me'yorli, bir xil topshiriqlarni qo'llaydigan murabbiylarning mashg'ulotlarida davomat o'rtacha 65% ga teng bo'ldi.

Musobaqalar oldidan, odatda, mashg'ulotlarda davomat ancha faollashdi. Bu davrda mashg'ulotlarda musobaqa elementlari kuzatildi, murabbiylar har bir yosh sportchining ishiga tez-tez baho berib turdilar; mashg'ulotda asosiy turishda, shuningdek, parterda kurashning alohida usullarini bajarish texnikasini kuchaytirish uchun topshiriqlar ko'proq bo'ldi. Bunday mashg'ulotlar kurashchilarning hissiy holatlari va kayfiyatlarining ko'tarinkiligi bilan odatdagilaridan ajralib turdi.

Umuman olganda, pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, tahlil qilingan mashg'ulotlar umumiy miqdorining 36,2% idagina motor zichlik hamda davomat ko'rsatkichlari yuqori bo'ldi. Ijobiy xulosa chiqarishga sabab bo'lgan mashg'ulotlarda murabbiyning o'quvchilar bilan uzluksiz munosabati qayd etildi.

Bunda kurash texnikasidagi nuqsonlarni tuzatishga oid ko'rsatmalar, ularning muvaffaqiyatidan qat'i nazar, barchasiga barobar tegishli edi.

O'tkazilish sifatiga ko'ra salbiy xulosa chiqarishga sabab bo'lgan mashg'ulotlarda bir me'yorli mashqlarning ustuvorligi kuzatildi. Ko'pchilik hollarda bajarilgan topshiriqlarni batafsil tahlil etishga o'rin berilmadi, murabbiyning ishtiroki uning qistab baqirib turishlari, norozi ohangdagi e'tirozlari shaklida ifodalandi. Aynan shunday murabbiylarning mashg'ulotlarida davomat past bo'lib, ularning guruhlarida turli yoshdagi bolalar ko'proq va sportni tashlab ketuvchilar soni ham ortiqroq edi.

Masalan, BO'SM o'quvchilarida koordinasiya qobiliyatlari ancha yuqori.

3.12-jadval

10-11 yoshli o'g'il bolalarda harakat qobiliyatlari ko'rsatkichlarini taqqoslash

№	Ko'rsatkichlar, o'lch. birl.	BO'SM o'quvchilari 18 kishi	Tashlab ketganlar kontingenti,	t – mezon va tafovutlar- ning
1.	Mokisimon yugurish (sek)	7,98 ± 0,68	7,61± 0,86	1,68 P>0,05
2.	30 m yugurish (sek)	5,3±0,38	5,4±0,41	1,12 P>0,05
3.	Yakkacho'pda tortilish (marta)	5,1±0,23	4,3±0,44	1,34 P>0,05
4.	Tayanib yotib, qo'llarni bukib-vozish (marta)	12,46±0,29	10,27±0,38	2,43 P<0,05
5.	Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)	128,41±0,13	132,37±0,23	2,28 P<0,05
6.	Chalqancha yotgan holda qaydani bukish (marta)	8,2±0,29	10,71±0,38	1,78 P>0,05
7.	Oldinga 10 marta o'mbaloq oshish (sek)	18,5±0,64	17,83±0,43	1,84 P>0,05
8.	Bosh atrofida aylanish: 5 chapga, 5 o'ngga (sek)	27,67±0,58	26,49±0,38	1,45 P>0,05

9.	Ko'prikchadan ag'darilish: 10 marta (sek)	37,73±0,83	38,62±0,43	1,21 P>0,05
10.	Vazni teng sherik bilan o'tirib-turish (marta)	3,2±0,32	4,5±0,32	1,89 P>0,05

Agar kurash bilan shug'ullanishda davom etayotgan bolalarda koordinasion qobiliyatlar darajasi o'rtacha va o'rtachadan yuqori deb baholangan bo'lsa, maktabni tashlab ketganlarda mazkur sifatlarni testlash darajasi o'rtachadan past va umuman past deb baholanadi. Faqat "mokisimon yugurish" testining bajarilish ko'rsatkichlarigina shug'ullanishga chek qo'ygan bolalarda o'quvchilarnikiga nisbatan yuqori, lekin ishonchli statistik tafovutlar ko'zga tashlanmadi. Bunday tafovutlarni biz quyidagi ko'rsatkichlarda kuzatdik: qo'llarga tayanib yotib, ularni bukib-yozish (marta) $R<0,05$ va joyidan turib uzunlikka sakrash (sm) $R<0,05$; bularda shug'ullanishni to'xtatgan bolalar boshlang'ich tayyorgarlik guruhi o'quvchilarinikidan yuqoriroq natija ko'rsatdilar. Boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha ishonchli statistik ko'rsatkichlar aniqlanmadi, bu har ikkala guruh bolalari o'xshashligini anglatadi.

Bolalarning sport bilan uzoq muddat shug'ullanishlariga zamin yaratish uchun ota-onalarda qadriyatlarga ijobiy munosabatning yaqqol ko'zga tashlanmasligi tufayli bolalarda sport motivlari zaruriy darajada emas ekan, bu holat tarbiyaviy yo'nalishdagi maxsus vositalarning yo'qligi hamda bolalarning ehtiyojlarini mashg'ulotlarning ijobiy-hissiy iqlimida ro'yobga chiqarish mumkin emasligi tufayli yana ham chuqurlashib boradi.

Erkin kurash bo'yicha BO'SM murabbiylari faoliyatida ijobiy va salbiy jihatlarining mavjudligi

Murabiyning ishi yo'nalishlari	Qayd etilgan nuqsonlar	Ijobiy jihatlar
1. Guruhni shakllantirish	1.1. Bir guruh bolalari yoshi orasidagi jiddiy tafovutlar (3-3,5)	1.1. Jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlari eng yaxshi va muayyan tana tizimiga

	<p>yoshgacha)</p> <p>1.2. Bolalar orasida maqsadli saralashning (tanlovning) yo'qligi</p>	<p>ega bo'lgan bolalarni qabul vaqti- da ustun qo'yish.</p> <p>1.2. Guruh o'quvchilari miqdorining talab etiladigan standartga mosligi.</p>
--	---	---

<p>2. O'quv-mashq jarayonining xususiyati.</p>	<p>2.1. Mag'ulotlarda hissiy fonning o'ta pastligi. 2.2. UJTni faqat badan qizdirish uchun kiritish. 2.3. Bola shaxsini tarbiyalash bo'yicha nazariy mashqlar va yo'naltirilgan ishning yo'qligi</p>	<p>2.1. Bolalarning o'z-murabbiyi va jamoadagi do'stlikka qiziqishi. 2.2. Kurashning texnik harakatlarini o'rganish ustida ko'proq ishlash.</p>
<p>3. O'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish.</p>	<p>3.1. Ijtimoiy jihatdan ahamiyatli sifatlar va sportcha fe'l-atvor xususiyatlarini tarbiyalash bo'yicha murabbiyning aniq va yo'naltirilgan faoliyatining yo'qligi. 3.2. O'quvchilar motivlash sohasini shakllantirishning o'ta muhimligini tushunmaslik.</p>	<p>3.1. Bolalarni kurash zalida o'zini tutish talab va me'yorlari bilan tanishtirish. 3.2. Kurash zalida bolalarning o'zini tutishi hamda ularning kurash usullarini qo'llashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi ustidan doimiy nazorat olib borish. 3.3. Kurash zali, dushxonalar va yechinish xonasidagi sanitariya va gigiyena qoidalari bilan tanishtirish.</p>

3-bob bo'yicha xulosa

BO'SMdagi turli yosh-malaka guruhlari o'quvchilarining sportni tashlab ketishi yosh dinamikasini o'rganish bo'yicha uchinchi bobda taqdim etilgan materiallarni ularning motivlari sohasi xususiyatlari bilan taqqoslash kurashchilarning boshlang'ich tayyorgarligi tizimidagi aniq bo'sh halqalarni belgilab chiqishga imkon beradi. Birinchi navbatda, ularni sport kurashida bolalarni shug'ullantirishning mavjud amaliyoti bilan ularning mashg'ulotlarga bo'lgan qizqishlari yo'nalishining bo'shligi taqozo etadigan motivlar sohasi rivojlanish xususiyatlari orasidagi ziddiyatlar tashkil qiladi. Ota-onalarning muntazam sport mashg'ulotlari ijtimoiy ahamiyatini hamda fiziologik rolini tushunmasliklari bu ziddiyatlarni yana ham chuqurlashtiradi.

Boshlang'ich sport tayyorgarligi bosqichida bolalarning sportni tashlab maktabdan ketishining yosh dinamikasi, mashg'ulot jarayonining mazmuni hamda yo'nalishlarini tahlil qilish natijalaridan kelib chiqib, BO'SM da birinchi yil ta'lim olayotgan bolalarning ko'pchilik qismi BTG lardan qanday sabab bilan ketib qolayotganligini izohlovchi bir qator ziddiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

**4-BOB. KURASH BO'YICHA BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK
GURUHLARIDA O'QUVCHILAR KONTINGENTINI
MUSTAHKAMLASHGA YO'NALTIRILGAN O'QUV-MASHG'ULOT
JARAYON USULIYATI**

**4.1. Pedagogik eksperimentning konsepsiyasini shakllantirish:
tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishning
asosiy yo'nalishlarini aniqlash**

Bolalarning nisbatan qisqa dastlabki tayyorgarlik bosqichidan keyin (odatda, ko'pi bilan bir yil) darhol bir me'yordagi zerikarli mashg'ulot topshiriqlariga kirishishga majbur bo'lishi, buning ustiga shunday mashg'ulotlarning haftasiga ko'pincha 5-6 kundan o'tkazilishi fakti ularning psixikasi tabiatiga nihoyatda jiddiy zidlik mavjudligidan dalolat beradi. Murabbiyning tarbiya sohasidagi yo'naltirilgan va tizimli faoliyati bo'lmas ekan, asab tizimi xususiyatlari bilan belgilanadigan tez paydo bo'lib, yo'qoladigan qiziqishlarning beqarorligi sport motivlarining shakllanishiga halal beradi. Sport kurashi vakillariga xos bo'lgan asab tizimining yuqori darajadagi qo'zg'aluvchanligi belgilariga ega bolalarning saralanishdan so'ng chiqib ketishi yuqorida aytilgan fikrlarni to'g'ridan-to'g'ri tasdiqlaydi.

Ishda belgilangan tadqiqot ma'lumotlari boshlang'ich tayyorgarlik guruhleri o'quvchilari kontingentini mustahkamlash strategiyasi sifatida quyidagi yo'nalishlarni ko'rsatish imkonini berdi:

1) jismoniy sifatlar va harakat qobiliyatlarini tarbiyalash vosita va usullarini tanlashda mashg'ulotlarni tashkil etishning faol shakllariga ustunlik berish (o'yinlar, estafetalar, bellashuv elementiga ega bo'lgan, jumladan, jamoaviy mashqlar);

2) o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va shaxsiy-psixologik tavsifnomalaridagi o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda muntazam o'tkazib turiladigan testlash hamda shifokor ko'rigi ma'lumotlari asosida topshiriqlarga qat'iy tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish;

3) ota-onalar va bolalar bilan olib boriladigan ma'rifiy-targ'ibot ishlarida muntazam chiniqish hamda salomatlikni mustahkamlashga, shuningdek, oila

tomonidan bolaning kun tartibi, dam olish tartibiga rioya qilishini nazarat ostida tutish zaruratiga kuchliroq urg'u berish;

Shunday qilib, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida maqsadlar hamda pedagogik vazifalarni belgilashdek umum qabul qilingan amaliyotdan farqli o'laroq, pedagogik tajribani rejalashtirishda tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lgan vazifalarni hal etishga asosiy e'tibor qaratildi. Murabbiyning mazkur jarayonga ota-onalarni jalb etish, jumladan, ularning umuman sport va jismoniy tarbiya sohasidagi bilimlari darajasini oshirish bo'yicha faoliyatini kuchaytirish alohida o'rniga ega bo'ldi.

4.2-jadval

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida mashg'ulotlar samaradorligini oshirish bo'yicha murabbiyning tarbiyaviy ishlarini tashkil etishning mazmuni va shakllari

Ishning yo'nalishi va bo'limlari	Shakli	Mazmuni, muntazamligi
1.1. Bola shaxsini tarbiyalash. 1.2. Bolalarda sportcha fe'l-atvor xususiyatlarini shakllantirish.	1. Suhbat; 2. Gapirib berish, ko'rsatish; 3. Mashhur sportchilar va sport faxriylari bilan uchrashuvlar. 4. Alohida topshiriqlar va mas'uliyatli vazifalar berish, keyin erishilgan yutuqlarni muhokama qilish. 5. Bolalar tomonidan alohida kundaliklar-ning tutilishi, ularni muntazam tekshirish, aniq taklif va	Har kuni: - hayotda va sportda mehnatsevarlik, o'z maqsadiga erishish yo'lidagi qat'iyat, o'z nuqtai nazari va qizqishlarini himoya qilish; - o'z vaqtini to'g'ri sarflash va xohish-larini nazorat qilishni bilish. - jangovar sifatlar, musobaqalashish, o'z kuchini to'g'ri taqsimlay olish malakasini

	tavsiyalar berish.	tarbiyalash usullari;
2.1. Ota-onalar va bolalarda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati to'g'risida to'g'ri tasavvurlarni shakllantirish	<p>1. Suhbat;</p> <p>2. Sport faxriylari va xizmat ko'rsatgan kishilar bilan uchrashuvlar.</p> <p>3. Mamlakat, viloyat, shahar, tumanning yetaksi sportchilari qatnashgan musobaqalarga borish.</p> <p>4. Ota-onalarni sport bayramlari va bolalarning musobaqalari, dam olish kunidagi sayohatlar, boshqa shaxarlarga musobaqalarga borishni oshirishga jalb etish va h.k.</p>	<p>- o'z-o'zini nazorat qilish va boshqara bilish qobiliyatini rivojlantirish;</p> <p>- vatanparvarlik va jamoachilik, o'z jamoasi, sport maktabi bilan faxrlanish tuyg'usi haqida; sport kurashida halollik olijanoblik, g'alaba qozinish va mag'lub bo'lishni bilish haqida; haqiqiy peshqadam va chempionning sifatlari haqida;</p> <p>- Olimpiada o'yinlari va olimpiya g'oyalari, Olimpiada o'yinlari qahramonlari to'g'ri- sida;</p>

Pedagogik tajribaning maqsadiga muvofiq o'quv-mashg'ulotlar jarayonlarini takomillashtirish tadbirlarini o'tkazish rejasi ishlab chiqildi hamda uni pedagogik jarayonning tabiiy sharoitlarida amalga oshirish dasturi tuzildi.

Tajribaning maqsadi maxsus yo'naltirilgan tarbiyaviy jarayonning vosita va usullarini qo'llagan holda o'quv-mashq darslarining tajriba modelini tashkil etish yo'li bilan boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida o'quvchilarning sportni tashlab ketishi darajasini pasaytirishdir.

Pedagogik tajriba biz keyingi yil BTG lariga qabul qilingan bolalar kontingentida sport maktabi faoliyati sifatini oshirishning samarali vositalarini

tajribalar asosida izlashni davom ettirishga qaror qildik. Guruhni shakllantirishda muntazam ravishda mashg'ulotlarga qatnagan, kam kasal bo'lgan va darslarda faollik, mustaqillik ko'rsatgan bolalarga ustunlik berildi. Shuningdek, farzandlarining yutuqlari bilan qiziqadigan, ularning sport maktabidagi mashg'ulotlarga qatnashishidan manfaatdor bo'lgan ota-onalarga, bolalarga ham alohida e'tibor qaratildi.

Bolalarni BO'SM BTG ga qabul qilish oldidan o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan majlis o'tkazildi, Suhbat chog'ida ham ota-onalar o'rgatuvchi-ta'limiy xususiyatga ega bo'lgan ishlarni bajarishning belgilangan dasturi bilan tanishtirildilar. Nazariy bilimlar olish, eng avvalo, sport fiziologiyasi, shuningdek, muntazam sport mashg'ulotlarining bola shaxsini shakllantirishga ta'siri haqidagi bilimlarga ega bo'lish zarurati xususida qisqa tushuntirish ishlari o'tkazildi.

4.2. Pedagogik eksperimentda tarbiyaviy yo'nalishlarni amalga oshirishning usul va vositalari

Mashg'ulotlarning o'zida bolalarga muayyan misollar orqali o'quvchilarning qo'pol xatolari ko'p bora namoyish etildi. Bunda avval xato topish ularning o'zlariga havola qilindi, bu xatolarning asosiy sabablarini aniqlash (jismoniy rivojlanish, bo'g'implarning harakatchanligi va h.k. dagi kamchiliklar ham) imkoniyati berildi.

Mashg'ulotlardan keyingi suhbatlarda o'tkazilgan ish yakunlarini chiqarishga alohida o'rin ajratildi.

Suhbatlar jarayonida doimiy ravishda guruh bu hamfikir kishilarning alohida jamoasi ekanligi, yagona jamoa sifatida unda muayyan "or-nomus qoidasi" amal qilishi, "bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun", "biz – azamat bolalar" va b. kabi qator shiorlarni o'z ichiga olishi ta'kidlab borildi. Bolalar bir-biriga hurmat bilan muomala qilishga o'rgatildi, ular oldiga quyidagicha vazifalar qo'yildi: "Kishining o'z nuqsonlarini yengishi qiyin, lekin men eplayman", "Bizda bo'shang va qoloqlar yo'q", "Reja qildingmi, bajar".

BO'SMdagi birinchi mashg'ulotlardan oq bolalar mustaqillik va intizomga o'rgatildi. Masalan, umumrivojlantiruvchi mashqlar majmuasini o'rgangach, ularning har biri navbatma-navbat o'z guruhida badan qizdirish mashqlarini o'tkazdi. Barcha bolalar bunday mashqlarni o'tkazib bo'lgach, ularning o'zi "Men – eng yaxshi murabbiyman" shiori ostida sovrin olishga munosib bolani tanlashar edi.

Murabbiy turli yo'llar bilan bolalarning faolligi va tashabbuskorligini rag'batlantirib bordi. Motivlash o'ziga xos quvvat manbai sifatida shug'ullanuvchilarning jonli faoliyatiga kuch bag'ishlaydi. Shu sababli murabbiy o'z oldiga "diqqatni tortish va qiziqtirish" vazifasini qo'ygach, yosh kurashchining har bir, hatto eng arziyas yutug'iga ham alohida e'tibor qaratdi. So'z bilan yoki ko'pincha hazil tariqasida, ramziy tarzda (o'zi yasagan medal, yorliq) mashqni to'g'ri bajargan, tirishqoq va qat'iyatli, butun guruh oldida mashq texnikasini namoyish qila olgan o'quvchini rag'batlantirdi. Har bir mashg'ulotda eng murakkab mashqlarni to'g'ri bajargan bolalarga baholar qo'yildi.

Har haftada, hafta oxirida umumjismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha nazorat topshiriqlari berilib, butun guruhning, xususan, har bir o'quvchining

muvaffaqiyatlari baholab borildi. Bolalarning o'zlari keyingi haftaga topshiriqlar (maqsadlar) belgilab, kundalikda erishilgan natijalarning ko'rsatkichlarini yozib borar, o'z muvaffaqiyatlari yoki, aksincha "mag'lubiyatlari" sabablarini tahlil etardilar.

Ishimizda biz shuni hisobga oldikki, yosh sportchini tarbiyalash ko'p jihatdan murabbiyning tashqi madaniyatiga, uning mashg'ulotlarni o'tkazish shaklidan boshlab, ularni aniq tashkil etishi, ishchan, talabchanligi, foydali va qiziqarli mashg'ulotlar uchun zarur sharoitlarni yarata olish qobiliyatigacha shularning barchasiga bog'liq. Bunda eng muhim omillardan biri murabbiyning tashqi qiyofasi va vaziyatning estetikasi.

4.3. Tajriba guruhlarida o'quv-mashq jarayonini tashkil etishning xususiyatlari

Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchi-shogird bilan hamkorlikda mashqni bajarish sifatini tashkil etishga (ayniqsa, u muvaffaqiyatsizlikka uchragan holatlarda) alohida ahamiyat berildi. Shu tariqa ongillik tamoyilining amal qilishiga erishildi, o'quvchining o'z xatolariga ongli munosabati rivojlantirib borildi. Bolaning yutuqlar sari tobora olg'a siljishini kuchaytirish imkoniyatlarini birgalikda izlash motivlarni rag'batlantiradi va barcha zarur mashqlarni bajarishga safarbarlik qobiliyatini rivojlantiradi.

Tajriba guruhida o'quv-mashg'ulot ishlarini tashkil etish uchun biz tarbiyaviy ishlarning shakllari, vositalari va mazmunini ishlab chiqdik (4.4-jadval). Ish bolaning o'ziga xos xususiyatlarini aniq hisobga olgan holda olib borildi. Bunda ularga testlash hamda shifokor nazorati natijalarini batafsil tahlil etgan holda mashg'ulotlarni individuallashtirish zarur ekanligi tushuntirildi. Bolalarga o'zlari haqida olingan ma'lumotlar asosida maqsadli rejalashtirish metodologiyasining eng oddiy asoslari berildi va shu asnoda yosh kurashchilar o'z oldiga turli muddatlarda

4.4.-jadval

Tajriba guruhida tarbiyaviy ishlarning shakllari, vositalari hamda mazmuni

Shakllari	Vositalari	Mazmuni
I. G'oyaviy-vatanparvarlik tarbiyasi shakllari.	1. Siyosiy axborot. 2. Suhbatlar. 3. Tarbiyaning ko'rgazmali vositalari. 4. Yig'ilishlar.	1. Siyosiy axborot: mamlakatda va jahonda yuz berayotgan asosiy voqyealar, sportchilarning ular bilan aloqadorligi. 2. Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy mavzulardagi suhbatlar, ma'ruzalar. 3. Umumiy majlislar: - muhim sanalar; to'g'risida suhbatlar. 4. Yangi kelganlarni sport jamoasi a'ziligiga qabul qilish. 5. O'zbekiston Qahramonlari, mehnat jamoalari, O'zbek Armiyasi jangchilari bilan uchrashuvlar. 6. Musobaqa g'oliblari va o'qishda a'lochilarni tantanali ravishda tabriklash. 7. Sport maktabi o'quvchilarining tantanali qasamyodlari. 8. A'zolik biletlarini tantanali ravishda topshirish.
II. Jamoani jipslashti-rish, jamoachilik tuyg'usini tarbiyalash bo'yicha	1. Devoriy nashrlar. 2. Sayohatlar. 3. Kecha va bayramlar. 4. Tanlovlar.	1. Mamlakat, maktab, jamoaning sport va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi stendlar, sport hayoti yilnomasi. 2. Mamlakat, jahonning yetakchi kurashchilari, maktabning eng yaxshi sportchilari, a'lochi o'quvchilari

<p>BO'SMda qo'llanadigan tarbiyaviy ish shakllari.</p>		<p>fotogalereyasi.</p> <p>3. Muhim sanalar, musobaqalardagi chiqishlarning yakuni va b. voqyealar munosabati bilan devoriy gazetalar, fotomontajlar, "Chaqmoq" larning maxsus sonlari.</p> <p>4. "Chaqmoq" lar chiqarish (tabrik va tanbehlar).</p> <p>5. Sport-sog'lomlashtiruvchi va tashviqot yo'nalishidagi sayohatchilarning guruhli yurishlari.</p> <p>6. BO'SMda tashkil etiladigan shanbaliklarda qatnashish.</p> <p>7. Sport mavzuidagi markalar, otkritkalar, nishonchalar va b. yig'malarining (kolleksiyalarining) namoyish ko'rgazmalari.</p> <p>8. O'zlashtirish, darslarning qoldirilishi, intizomning buzilishi va h.k. ni nazorat qilish maqsadida ota-onalar va o'qituvchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish.</p> <p>9. Shior va jamoa qo'shig'ini tanlash.</p> <p>10. Shaxmat-shashka turnirlarini o'tkazish.</p>
<p>III. O'quvchilarning umumiy madaniyat darajasini ko'taruvchi tarbiyaviy</p>	<p>1. Ekskursiyalar. 2. Teatr va kinoteatrlarga jamoa bo'lib borish. 3. Muzey va bog'larga jamoa bo'lib borish.</p>	<p>1. "Sport va shaxs", "Ajoyib kishilar hayoti", "Olimpiadachi portreti" seriyasidagi kitoblarni muhokama qilish. 2. Teatr va kinoteatrlarga jamoa bo'lib borish va tomosha qilingan asarlarni muhokama qilish. 3. Badiiy ko'rgazmalarni borib ko'rish.</p>

ishlar		4. Botanika bog'iga borish.
IV. Sport sohasidagi bilimlarni kengaytirish, sport faoliyatini takomillash-tirishga yordam beruvchi tarbiyaviy ish shakllari.	<p>1. Mashhur sportchilar bilan uchra-shuvlar o'tkazish.</p> <p>2. Mashhur murabbiylar bilan uch-rashuv o'tkazish.</p> <p>3. Musobaqalarga jamoa bo'lib borish.</p> <p>4. Ko'rgazmali chiqishlarni tashkil etish va o'tkazish.</p>	<p>1. "Sport kurashi bilimdonlari" shiori ostida KVN tashkil etish (KVN – Quvnoqlar va zukkolar klubi).</p> <p>2. "Sen kurash tarixini bilasanmi?" mavzuida viktorina o'tkazish.</p> <p>3. "Siz Olimpiada harakatini bilasizmi?" viktorinasini o'tkazish.</p>

bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni qo'yish hamda sport tayyorgarligining har bir bo'limida o'z yutuqlarini rejalashtirish malakasini egallab bordilar.

Birinchi yilda bajarilgan ishlar amaliyoti tanlangan yo'nalishning to'g'riligini tasdiqladi: 1) butun guruh keyingi yilning kuzida mashg'ulotlarga to'la tarkibda keldi; 2) sport ko'rsatkichlari an'anaviy usulda shug'ullanayotgan boshqa guruhlardagi tengdoshlarinikidan qolishmasdi; 3) motivlarning yo'nalishi motivlashning sport sohasi shakllanishi tomon ancha o'zgardi (4.3-jadval).

Mashg'ulotlarning birinchi yilidan so'ng kuzda ikkinchi o'quv yiliga barcha bolalar to'liq kelishdi. Bungingi kunda bir qator kurashchilar o'z sport maktabi sharafi uchun muvaffaqiyat bilan gilamga chiqib, birinchi razryad me'yorlarini bajardilar. Nazorat guruhida kuzdan boshlab mashg'ulotlarni 9 kishi davom ettirdi (birinchi yil BTG ga qabul qilinganlarning uchdan bir qismidan ziyodrog'i mashg'ulotlarga kelmay qo'ydi, bu BO'SM bo'yicha avvalgi yillardagi o'rtacha ko'rsatkichlardan ancha yuqori).

Tajriba jarayonida bolalarning kurash mashg'ulotlariga qiziqishi qanday o'sib borayotganligi ko'rinib turdi, shuningdek, yaqqol ko'zga tashlangan tarbiyaviy-ta'limiy yo'nalishdan tashqari mashg'ulotlar dasturining o'zini almashtirish, ularning

yanada qiziqarliroq, rang-barang bo'lishiga erishish zarurligi ma'lum bo'ldi. Pedagogik tajribani tashkil etish va o'tkazish davrida biz ham nazorat, ham tajriba guruhi bolalarining UJT va MJT xususiyatlarini kuzatib, baholadik. Tadqiqotlar pedagogik tajribaning boshida va yakunida tashkil etildi. Kuzatuvlar uchun yuqorida keltirilgan UJT va MJT me'yorlari hamda testlardan foydalanildi (3.13-jadval).

Kuzatuvlarimiz natijalari 4.5-jadvalda aks ettirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhining bolalari nazorat guruhidagi bolalardan ancha ustun. O'nta me'yordan yettitasida biz tajriba guruhi bolalarida jiddiy statistik tafovutlarni kuzatdik. Bu shundan dalolat beradiki, kontingentni saqlab qolishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlar usuliyati o'quv-mashg'ulot jarayoni sifatini ham ko'tarishga yordam berdi, bu UJT va MJT ko'rsatkichlarida aks etdi.

4.5-jadval

Tajriba oxirida nazorat guruhlaridagi bolalarda UJT va MJT me'yorlari bo'yicha harakat qobiliyatlarining taqqoslanishi

№	Ko'rsatkichlar, o'lch. birligi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	t-mezoni va tafovutlar
1.	Mokisimon yugurish (sek)	7,5 ± 0,24	7,3± 0,39	1,76 P>0,05
2.	30 m yugurish (sek)	5,2±0,14	5,1±0,26	1,52 P>0,05
3.	Yakkacho'pda tortilish (marta)	5,7±0,17	6,8±0,26	3,34 P<0,01
4.	Yotib tayangan holda qo'llarni bukib-yozish	13,32±0,15	14,15±0,23	2,43 P<0,05
5.	Joyidan uzunlikka sakrash (sm)	129,22±0,13	136,14±0,27	3,28 P<0,01
6.	Chalqancha yotib gavdani bukish (marta)	9,5±0,15	13,31±0,18	3,78 P<0,05
7.	Oldinga 10 marta o'mbaloq oshish (sek)	17,2±0,21	16,26±0,13	1,94 P>0,05

8.	Bosh atrofida aylanish: 5 marta chapga, 5 marta o'ngga (sek)	28,24±0,28	25,49±0,17	2,45 P<0,05
9.	“Ko'prikcha”dan ag'darilishlar 10 marta (sek)	36,25±0,83	32,12±0,21	2,71 P<0,05
10.	Teng vaznli sherik bilan o'tirib-turish (marta)	4,1±0,13	6,2±0,17	2,89 P<0,05

Pedagogik tajribaning o'zi va muammoni hal etishning tanlangan yo'li tayyorgarlik yo'li usuliyatini jiddiy qayta qurish zaruratiga olib keldi. Birinchi yarim yillik davomida ta'limiy-tarbiyaviy yo'nalishda qo'llaniladigan vositalar hajmini yanada oshirish asosida kontingentni saqlab qolish vazifasini hal etishning turli shakllariga yanada ko'p vaqt ajratildi.

4.4. Ta'limiy-ma'rifiy ishlar sifatini bajarishning usul va vositalari

Pedagogik tadqiqotlar tahlili sport maktabi o'quvchilari va ularning ota-onalari orasida olib borilayotgan ma'rifiy ishlarining sustlashishini ko'rsatdi. Pedagogik tajriba doirasida o'quv yili davomida tajriba guruhi o'quvchilari va ularning ota-onalari bilan sport mashg'ulotlarining zarurligi to'g'risida ma'rifiy ishlar olib borildi. Bu ishlar kichik-kichik ma'ruzalar, suhbatlar, muhokasalar shaklida, shuningdek, bevosita mashg'ulotlar vaqtida tushuntirish va misollar yordamida amalga oshirildi.

Bolalar bilan nazariy faoliyat aynan sport-mashq mavzularida, yana tarbiyaviy yo'nalishda ham bo'ldi va u quyidagilarni o'z ichiga oldi: 1) kurash sport zalida o'zini tutish qoidalari. Jamoat joylarida o'zini tutishning etik me'yorlari singdirildi; 2) mashg'ulotlar va musobaqalarda sportcha ahloq etikasi. Mashg'ulotlarda sportcha etika guruhdagi o'rtoqlarga halal bermasdan o'zini qanday tutish, o'zaro yordam ko'rsatish (anjomlarni tayyorlash va yig'ishtirishda yordam ko'rsatish, badan qizdirish paytida hamkorlik qilish va h.k.) kabilarni, musobaqalarda o'zini tutish etikasi axloqiy qoidalar va jamoadagi o'rtoqlarni faol qo'llab-quvvatlashni, boshqa jamoadagi raqiblarni hurmat qilishni o'z ichiga oladi; 3) jismoniy jihatdan mahkam va kuchli bo'lish maqsadi va zarurati to'g'risida; 4) sport xayoti istiqbollari to'g'risida. Bunday suhbatlarda murabbiy yuksak natijalarga erishish imkoniyatlari hamda kelajakdagi rejalar xususida so'z yuritadi. Bolalarning sport ustalari, kurash faxriylari va b. bilan uchrashuvlari tashkil etiladi; 5) sportning, xususan, kurashning tarixi va bugungi kuni to'g'risida. Kurashning sport turi sifatida O'zbekiston va dunyodagi tarixi. Murabbiy sportchilar hayotidan qiziqarli voqyealar, jahon chempionatlari hamda Olimpiada o'yinlaridagi sport yutuqlari haqida so'zlab beradi.

Axloqiy-irodaviy tayyorgarlikka katta ahamiyat qaratildi. Butun o'quv yili davomida sportcha fe'l-atvorga xos intiluvchanlik, qat'iyat, intizom, irodaviy sifatlarni tarbiyalash bo'yicha aniq maqsadli ishlar olib borildi. Murabbiy ularning kundalik hayotdagi, har sohada muvaffaqiyatga erishish uchun bo'lgan ahamiyatini tushintiradi.

Ish maxsus belgilangan vaqtda mashg'ulotdan avval yoki keyin, shuningdek, bevosita o'quv-mashq jarayonida olib borildi. Ya'ni tarbiyaviy ishlar uzluksiz ravishda aniq mo'ljal bilan amalga oshirildi. Bunda suhbatlarni tez-tez o'tkazib turish kerak emas, ularni maktab, sport va davlat hayotidagi muayyan voqyealar bilan bog'lab rejalashtirish zarur. Suhbatlar mazmuni bolalar kontingenti uchun tushunarli edi; suhbat paytida o'quvchilarning faolligi va qiziqishi orta bordi. Barcha suhbatlar guruh hayotidan olingan ma'lum misollardan boshlanib, ulardan esa xulosa qilishga o'tilardi.

O'quv-mashg'ulot jarayonini oqilona qurishda o'z farzandining kurash bilan shug'ullanishiga ota-onalarning munosabati, shu tufayli bolaga shug'ullanish uchun hayotiy qo'llanmalarni yaratib berishlari (kun tartibi, dam olish va ovqatlanishi); sport bilan shug'ullanishni qo'llab-quvvatlashlari va rag'batlantirishlariga alohida ahamiyat berildi. Shuning uchun ham o'quvchilarning ota-onalari orasida ma'rifiy ishlarni olib borish o'quv-mashq jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Ish ushbu yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi:

- sport bellashuvini olib borish ko'nikmasini hosil qilish uchun zarur bo'lgan kurashchining texnik-taktik harakatlariga o'rgatish xususida;
- bola organizmining jismoniy va funksional rivojlanishini uyg'unlashtirishda sport kurashining ulkan imkoniyatlari va ustun jihatlari to'g'risida;
- murabbiy kasbi hamda sport hayoti bilan bog'liq ma'naviy va moddiy manfaat hamda istiqbollari to'g'risida;
- bolalar-o'smirlar sport maktabi tomonidan aniq maqsadli tarbiyaviy jarayonning olib borilishi to'g'risida;
- bolaning sport bilan maqsadga muvofiq ravishda shug'ullanishi va sport sohasidagi savodliligi to'g'risida (sport zamonaviy kishining hayot tarzi sifatida).

Ota-onalar mashg'ulotlarga kelgan vaqtda murabbiy ular bilan barqaror qiziqishlarni shakllantirish muammolari, bu ish bilan bog'liq holda mustahkam fuqarolik qarashlarini hosil qilish, kuchli shaxsni tarbiyalashga bag'ishlangan ma'rifiy ishlarni olib boradi. Bolalarda sport kurashi mashg'ulotlariga qiziqishni faqat murabbiy-o'qituvchilar tarkibining tarbiyalashi va mustahkamlashi yetarli

emas, murabbiy va ota-onalarning bola shaxsiga birgalikda ko'rsatadigan ta'siri tarbiyaviy ishlarning natijalarini yanada samarali va barqaror qiladi.

Bolalar uchun ota-onalarining o'zlari shug'ullanayotgan ish bilan qiziqishlari juda muhim. Agar ota-onalari o'quv mashg'ulotlariga kelib turishsa, murabbiy bilan suhbatlashib, musobaqalarda farzandlarini qo'llab-quvvatlashsa, bolaning sport kurashiga qiziqishi oshib boradi. Pedagogik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, loqayd ota-onalarning farzandlari ertami-kechmi sport mashg'ulotlariga qatnashishni to'xtatib qo'yadi. Bundan tashqari, shunday ota-onalar guruhlarini ham kuzatdikki, ular farzandlarini sportni tashlashga o'zlari undaydilar va buni shunday izohlaydilar: bola uchun maktabdagi jismoniy tarbiya darslarining o'zi yetarli, sport zalidagi kundalik mashg'ulotlar o'qishga halaqit beradi.

Ota-onalar bilan ma'rifiy ishlar alohida suhbatlar va ota-onalar majlislari shaklida olib borildi. Shuningdek, ota-onalar har doim musobaqalarga turli tadbirlar va bayramlarda ishtirok etish uchun taklif etildilar. Ularning mashg'ulotlarga kelishi ham ijobiy baholandi. Ko'pchilik tadbirlarni, masalan, shahar tashqarisiga sayohatlarni, madaniy tadbirlarni tashkil etishda ota-onalarning ishtiroki har doim katta foyda berdi. Sport bayramlari hamda boshqa shaharlarda bo'ladigan musobaqalarga safarlarni uyushtirishda esa ularning ko'magi juda bebaho edi. Bunda bo'sh vaqti bo'lgan ota-onalar tadbirlarda doimo ixtiyoriy ravishda ishtirok etdilar.

To'rtinchi bob bo'yicha xulosa

Ikki yil mobaynida o'tkazilgan tadqiqotlar bolalarning sport maktabidan ommaviy ravishda ketib qolishi hodisasi tahlili bilan bog'liq qator jihatlarni o'rganishga bag'ishlandi. Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlardan farqli o'laroq, murabbiylar, ota-onalar va kurashchilarning o'zlari uchun biz ishlab chiqqan so'rovnoma majmui asosida barcha tomonlarning fikrlarini o'zaro solishtirish imkoniyati paydo bo'ldi. (1-4-ilovalar). Maktabni tashlab ketishlarning yosh-malaka jihatini tekshirish bilan birga, biz sport kurashi bilan shug'ullanuvchi bolalar va o'smirlarning qiziqish hamda motivlariga xos xususiyatlarni o'rgandik. Sport maktabida ishlaydigan murabbiylarning o'z funksional majburiyatlarini bajarishdagi kasbiy mahorati hamda ularni vijdonan amalga oshirishi omili ham mutlaqo yangi edi.

Tadqiqot davomida olingan materiallarni umumlashtirganda, yosh sportchilarni tayyorlash tizimida uchta turli jihatni farqlash mumkinki, ularning tarkibini muayyan ma'noda takomillashtirish talab etiladi. Birinchi jihat yosh kurashchilarning yuzaga kelib qolgan va ko'p jihatdan nuqsonlarga ega bo'lgan mashg'ulot amaliyoti, boshlang'ich sport tayyorgarligi davrida maktabdan ketib qolishlar bilan bog'liq. Ikkinchi jihat yosh sportchilarda sport bilan shug'ullanish motivini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi, hal etilishi ancha murakkab bo'lgan tarbiyaviy-ta'limiy yo'nalishdagi vazifaga borib taqaladi. Uchinchi jihatni ma'muriy-boshqaruv yo'nalishiga ega deyish mumkin, u sport maktabi ma'muriyatining obro'-e'tibori, o'z bevosita majburiyatlarini bajara olishi darajasini, shuningdek, uning o'zi shakllantirgan tashkiliy tuzilmalar (murabbiylar kengashlari, ota-onalar qo'mitalari va h.k.) faoliyatini boshqarishini aks ettiradi.

Hamkasblarimizning mashg'ulotlarni qanday olib borishlari ustida o'tkazilgan kuzatuvlarimiz hamda so'rovnoma asosida fikr o'rganish orqali ma'lum bo'ldiki, murabbiylar o'z faoliyatlarida bittagina mashq bajarish usuliyatidan foydalanadilar. Buning ustiga, so'nggi yillarda sportchilarning ko'p yillik tayyorgarligi bosqichidan qat'i nazar, texnik-taktik ishlar hajmini asossiz oshirishga moyillik kuchayib ketdi. Murabbiylarning o'zlari BO'SM da birinchi yil shug'ullanayotgan tayyorgarligi bo'sh bolalar uchun ish hajmlarini bunday oshirishning to'g'ri emasligini yaxshi

tushunadilar, chunki so'rovnomalarda ular, odatda, bolalarning bir mashg'ulot davomida bajargan topshiriqlari hajmini kamaytirib ko'rsatadilar.

BTG bilan ishlaydigan murabbiylar faoliyatidagi eng yirik nuqson motivlar sohasini rivojlantirishning yosh xususiyatlarini hisobga olmaslik, bolalarning jamoa bilan ijodiy ishlash mashg'ulotlarini tashkil etishning qiziqarli shakllariga bo'lgan ehtiyojiga, ularning yoshiga bog'liq qiziqishlariga xos biologik jihatdan taqozo etiladigan qonuniy o'ziga xosliklariga ahamiyat bermaslikdir. Mashg'ulotlarni o'yin harakatlari usullari bilan, bellashuv elementlarini qo'llagan holda, mashqlar mazmunini uzluksiz o'zgartirib o'tkazish murabbiydan ishga ijodkorona yondashishni, butun dars davomidagi tinimsiz mehnatni talab qiladi.

Sport maktabi faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlarini hech qanday qo'shimcha moddiy sarf-harajatlarsiz, o'quvchilar kontingentini mustahkamlash yo'li bilan topish mumkin.

XOTIMA

1. Adabiyotlarni tahlil etish natijalari kurash turlari bo'yicha BO'SM kontingentining sportni tashlab ketishini o'rganish muammolari bo'yicha tajriba bazasining mavjud emasligini ochib berdi. Muammo, eng avvalo, shundaki, o'quvchilarni mustahkamlash bilan bog'liq yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlar olib borilmaydi.

2. BO'SM boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida o'quvchilarning maktabdan ketib qolishi yosh dinamikasini ularning motivlash sohasiga xos xususiyatlar bilan taqqoslash asosida kurashchilarning boshlang'ich tayyorgarlik tizimidagi aniq bo'sh halqalarni belgilab olish imkoniyati tug'ildi. Eng avvalo, ularni bir tomondan sport kurashida bolalarni shug'ullantirishning mavjud amaliyoti va ikkinchi tomondan bolalarning mashg'ulotga kuchsiz qiziqishi yo'nalishlari bilan belgilangan motivlash sohasining rivojlanish xususiyatlari orasidagi ziddiyatlar shakllantiradi

3. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida bolalarning maktabdan chiqib ketishlari yosh dinamikasi, mashg'ulot jarayonining mazmuni va yo'nalishiga oid olingan ma'lumotlar tahlili BO'SMda birinchi o'quv yilida bolalarning katta qismini ketishga undaydigan qator ziddiyatlarni ajratib ko'rsatish imkonini berdi.

4. Yosh sportchilarni tayyorlash tizimidagi ahamiyati nuqtai nazaridan teng kuchli uchta jihat ochib berildiki, ular o'z tarkibiy qismlarining ma'lum darajada takomillashtirilishiga muhtojdir.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Bolalar va o'smirlar sport maktablarining direktorlari o'z faoliyatlarini takomillashtirish uchun eng avvalo quyidagilarni aniqlab olishlari kerak:

- murabbiyning mahorati darajasi hamda ma'muriyatning o'quv-mashg'ulot jarayoni qanday borayotganligini sifatli nazorat qilib borish;

- murabbiy-o'qituvchilar tarkibining bilim darajasini oshirish uchun ilmiy-usuliy va nazariy seminarlarni tashkil etib, o'tkazish;

- murabbiylar tarkibi va sportchilar uchun maxsus adabiyotlar hamda zarur ilmiy-usuliy ishlanmalarni sotib olish;

- mashq jarayoni va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga ijodiy yondashuvni rag'batlantirib borish;

- maktab faoliyati amaliyotiga har bir sportchining alohida varaqasini joriy etib, majburiy ravishda testlash va saralashdan o'tkazish;

- ota-onalar va sport maktabi ma'muriyati ishtirokida maktab miqyosida tashkil etiladigan musobaqalar hamda sport bayramlari miqdorini ko'paytirish;

- UJT va texnik tayyorgarlik testlari bo'yicha tayyorgarlikning haqiqiy darajasini hisobga olgan holda shug'ullanuvchilar tarkibining barqarorligi mezoni asosida eng yaxshi murabbiylarni rag'batlantirish.

2. Murabbiylar tomonidan tarbiyaviy ishlarning o'tkazilishi, bolalar va ularning ota-onalari orasida ma'rifiy tadbirlarning olib borilishi hamda ularning nazariy bilimlari kengaytirilishiga diqqat qilish;

3. Murabbiy xodimlar orasida ularning kasbiy-pedagogik faoliyati obyektiv ko'rsatkichlariga tayangan sog'lom raqobat bo'lishi zarur.

4. Masalan, majmualii sport maktabi ma'muriyati turli bo'linmalar murabbiylarining hamkorlikdagi ishlarini amaliyotga tatbiq etishi zarur.

5. Nazariy bilimlarni oshirib borish jismoniy tarbiya va mashg'ulot usullari haqida, shaxsning mutanosib rivojlanishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati to'g'risida to'g'ri tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. – T.: O'zbekiston, 2004. 133- b.
2. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. – T.: O'zbekiston, 2001. 310- b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch T.: Ma'naviyat, 2008. 62-63-b.
4. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», 29 avgust, 1997 y.
5. Abdullayev A., Xankeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. – T.: O'zDJTI, 2005. – 232 s.
6. Azizov N., Sharipov A. Postroyeniye predsorevnovatelnoy podgo-tovki borsov // «Akademik lisey va kasb xunar kollejlarida jismoniy tarbiyani takomillashtirish muammolari» / Mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Andijan, 2003. – S. 18-19.
7. Azizxujayeva N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: TDPU. 2003. 15-b.
8. Arslanov Sh. Dzyudo. Uchebnoye posobiye. T.: O'zDJTI, 2005. – 180 s.
9. Atayev A.K. Yosh o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti. Jismoniy tarbiya instituti va oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. T.: O'zDJTI, 2005. 132- b.
10. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport – sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. Monografiya. T.: O'zDJTI, 2005. 280-b.
11. Axmetov S.M. Teoretiko-metodologicheskaya konsepsiya preobrazovaniya podgotovki specialistov po fizicheskoy kulture v sfere srednego professionalnogo obrazovaniya. //Teoriya i praktika fizicheskoy kultury. 2003, №12. – S. 23-26.
12. Achilov A.M., Akramov J.A. Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiylash. O'quv qo'llanma. T.: O'zDJTI, 2009. – 208 b.
13. Ashmarin B A. Teoriya i metodika pedagogicheskix issledovaniy v

- fizicheskom vospitanii. - M.: Fizkultura i sport, 1978 -222 s.
14. Bogen M.M Obucheniye dvigatel'nyim deystviyam. – M.: Fizkultura i sport,1985.- 192 s.
 15. Usmanxodjayev T.S Bolalar va o'smirlar sporti mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyatlari /. va boshqa. T.: O'zDJTI, 2005. – 104 b.
 16. Blinov V.M. Problemy podgotovki fizkulturnykh kadrov v novykh sosialno-ekonomicheskix usloviyax reorganizatsii obshchestva // Teoriya i praktika fiz. kultury. - 2000. - N 5. - S. 11-13.
 17. Bogdanova N.A. Podgotovka studentov pedagogicheskogo kolledja k estetiko-fizicheskomu vospitaniyu shkolnikov: Avtoref. dis. ... kand. ped nauk. – Petrozavodsk, 1999. – 17 s., 2 tabl., 1 ris.
 18. Borisov V.Ya. Pedagogicheskiye osnovy professionalno oriyentirovannogo fizicheskogo vospitaniya studentov: Avtoref. dis. ... kand. ped. nauk. Belorus. gos. un-t fiz. kultury. - Minsk, 2004. - 23 s.: il.
 19. Borisova O.A. Napravlennoye ispolzovaniye sredstv fizicheskoy kultury dlya selostnogo formirovaniya lichnosti pedagogicheski zarushchennyykh podrostkov 10-11 let: Avtoref. dis. ... kand. ped. nauk / VNIIFK. - M., 1999. - 25 s.: il.
 20. Bulgakova N.J. Otbor v sportivnom plavanii// Plavaniye. - M.; Fizkultura i sport, 1973 - Выр.2, - S25-2V
 21. Bulgakova N.J. Otbor i podgotovka yunyykh plovsov. - M.: Fizkultura i sport, 1986.-S. 21-24.
 22. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish: O'quv qo'llanma. – T.: O'zDJTI, 2005. – 172 b.
 23. Goncharova O.V. Metodika povysheniya effektivnosti skorostno-silovoy podgotovki mladshix shkolnikov // Pedagogik ta'lim. – T., 2004. – S. 89-91.
 24. Goncharova O.V. Parametry razvitiya vzryvnoy sily u mladshix shkolnikov pri ispolzovanii udarnogo metoda // Pedagogik ta'lim. – T., 2003. – № 2. – S. 54-57.
 25. Devyatko I.F. Metody sosiologicheskogo issledovaniya. – M.: Universitet, 2002. – 296 s.

26. Derkach A.A., Isayev AA. Pedagogicheskoye masterstvo trenera.- M.: Fizkultura i sport, 1981.- 368 s.
27. Jeleznyak Yu.D., Petrov P.K. Основы научно-методической деятельности в физической культуре и спорте. Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2002. – 264 с.
28. Sharipov T.Yu., Usmanxod'jaev T.S. Jismoniy tarbiya. Dars ishlanmalari va harakatli o'yinlar. (1-4 sinf o'kituvchilari uchun o'g'uv go'llanmasi). -T.: O'zDJTI, 2005. – 148 b.
29. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. – T.: O'zDJTI, 2001. – 286 b.
30. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. – T.: O'zDJTI, 2004. – 263 b.
31. Kerimov F.A., Nurullayev A.K. Volnaya borba. Programma i uchebnoye posobiye dlya detsko-yunosheskix sportivnyx shkol, spetsializirovannyx detsko-yunosheskix shkol Olimpiyskogo rezerva. T.: O'zDJTI, 2005. – 158 s.
32. Kerimov F.A., Umarov M.N. Sportda prognozlashtirish va modellashtirish. Jismoniy tarbiya instituti va oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya fakultetlari uchun darslik. T.: O'zDJTI, 2005. – 280 b.
33. Kerimov F.A., Yusupov N. Kurash uchun harakatli o'yinlar. O'quv qo'llanma. -T.: O'zDJTI, 2005. – 72 b.
34. Koshbaxtiyev I.A. Valeologiya asoslari. Jismoniy tarbiya instituti va oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya fakultetlari uchun darslik. T.: O'zDJTI, 2005. – 252 bet.
35. Matveyev L.P. Teoriya i metodika fizicheskoy kultury. Uchebnik dlya in-tov fiz. kult. – M.: Fizkultura i sport, 1991. – 543 s., il.
36. Matnazarov U., Sharipov O. Oliy o'quv yurtlari jismoniy madaniyat mashg'ulotlarida inson omili // Ilm sarchashmalari. Urganch, 2005. – № 2. 106-107-b.
37. Mirzayev Ya.TS Psixologo-pedagogicheskiy analiz form povыsheniya motivatsii v volnoy borbe // Psixologo-pedagogicheskoye vozdeystviye v sportivnoy deyatelnosti. - Alma-Ata: Kaz GIFK, 1988.-C.34.

38. Mixeyev A.I. Sistema vospitatelnoy raboty so sportsmenami// Teoriya i praktika fizicheskoy kultury, 1993. -№4. -S..34.
39. Pulatov F.M., Ruziyev M.M., Sharipov A. Operativnoye i tekushcheye normirovaniye nagruzok po velichine v borbe sambo.// Pedagogik ta'lim. T., 2003. – № 5. – S. 39-41.
40. Raximov M.M. Sport mashg'ulotlarining nazariyasi va usuliyati asoslari. Jismoniy tarbiya instituti va oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya fakultetlari uchun darslik. -T.: O'zDJTI, 2005. – 220 b.
41. Rodionov A.V. Praktika psixologii sporta. Uchebnoye posobiye. T.: O'zDJTI, 2005. – 240 s.
42. Salamov R.S. Sport mashg'ulotining nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: O'zDJTI, 2005. – 238 b.
43. Salomov R.S., Kerimov F.A. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. -T.: O'zDJTI, 2009. – 144 b.
44. Usmanxodjayev T.S. Nauchno-pedagogicheskiye osnovy fizicheskogo sovershenstvovaniya detey v svyazi s ix dvigatelnoy aktivnostyu.: Avtoref. dis. ...d-ra ped. nauk. – T., 1995. – 49 s.
45. Sharipova D.D., Musurmanova A., Tairova M. Formirovaniye zdorovogo obraza jizni. – T.: UzGIFK, 2005. – 180 s.
46. Yugay L.P. Osnovy dzyudo. Uchebnoye posobiye dlya institutov kultury i fakultetov fizicheskogo vospitaniya. T.: O'zDJTI, 2005. – 140 s.
47. Yugay L.P., Plov A.N., Boymuradov I.X., Mirzakulov Sh. Dzyudo. Programma i uchebnoye posobiye dlya detsko-yunosheskix sportivnyx shkol, spetsializirovannyx detsko-yunosheskix shkol Olimpiyskogo rezerva. T.: O'zDJTI, 2005. – 140 s.
48. Yugay L.P., Utenov U.U., Taymuradov O.O., Abdiyev A.N. Sambo. Programma i uchebnoye posobiye dlya detsko-yunosheskix sportivnyx shkol, spetsializirovannyx detsko-yunosheskix shkol Olimpiyskogo rezerva. T.: O'zDJTI, 2005. – 138 s.
49. Yunusova Yu.M. Fizicheskaya kultura v obshchey obrazovatelnyx shkolax Respubliki Uzbekistan. Uchebnoye posobiye. – T.: UzGIFK, 2004. – 184 s., il.
50. Yunusova Yu.M. Osnovy sportivnoy trenirovki. Uchebnoye posobiye. T.: O'zDJTI, 2005. – 256 s.

ILOVALAR

1–ILOVA

SO'ROVNOMA

(murabbiylar tarkibi uchun)

Biz o'z tadqiqotlarimizni BO'SM dagi tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish uchun tashkil etdik. Sizning ishtirokingiz erkin kurash bo'yicha boshlang'ich tayyorlov guruhlarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ayrim jihatlarini aniqlashtirishga imkon beradi. So'rovnoma asosida savol-javob o'tkazish anonim shaklda amalga oshiriladi, e'lon qilinadigan axborot va materiallarda Sizning ismi sharifingiz qayd etilmasligini kafolatlaymiz

Murabbiylik faoliyatida Sizni nima qiziqtiradi?

- Bilim berish jarayoni.
- Odamlar bilan muloqot
- Yaxshi ish haqi.
- Bolalarga bo'lgan mehr.
- Kasbiy tajriba to'plash.
- Uzoq muddatli ta'til.
- Ijodiy rang-baranglik.
- Ish kunining me'yorlanganligi.
- Sog'lom avlodni tarbiyalash.
- Chet elga chiqish.

2. Siz murabbiy sifatidagi o'z ishingizdan xursandmisiz?

- Juda xursandman.
- Xursandman.
- Menga baribir.
- Xursand emasman.
- Umuman xursand emasman.

3. BO'SM da boshlang'ich tayyorgarlik guruhlari uchun tarbiyaviy ishlar dasturi Sizga yoqadimi?

- Juda yoqadi.

- Xa, yoqadi.
- Menga baribir.
- Yoqmaydi.
- Umuman yoqmaydi.

4. Siz boshlang'ich tayyorgarlik guruhlariga necha yoshli bolalarni qabul qilgan ma'qul deb hisoblaysiz?

8 yosh; 9 yosh; 10 yosh; 11 yosh va undan katta.

5. Siz guruhlarini shakllantirishda yosh chegaralariga qattiq e'tibor berasizmi?

Ha; Yo'q;

6. Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida haftasiga necha marta mashg'ulot o'tkazish kerak (ikki, uch, to'rt, besh) ?

7. Siz sport maktabidagi dastlabki mashg'ulotlardan oq bolalarni mashq jarayoniga jalb qilish kerak deb hisoblaysizmi?

Ha; Yo'q;

8. Siz bir maromda o'tkazilgan mashg'ulotlardan bolalarda paydo bo'lgan charchoqni qanday bartaraf qilasiz?

a) muntazam ravishda rang-barang mashqlarni kiritib turaman;

b) mashg'ulotga o'yinlar va o'yin elementlarini kiritaman;

v) estafeta va kichik musobaqalar o'tkazaman;

g) suhbatlar o'tkazaman;

d) boshqa yana nimadir _____

9. Siz sport kurashiga qanday qiziqirasiz?

a) o'quvchilarga individual topshiriqlar beraman;

b) har bir bolaning oldiga o'ziga mos maqsad qo'yaman;

v) yangi mashq va topshiriqlarni o'zlashtirishni taklif qilaman;

g) o'z kuchiga ishonchni singdiraman;

d) tez-tez bellashuvlar o'tkazishni taklif qilaman;

ye) maxsus psixologik-pedagogik ish olib boraman;

j) boshqa yana nimadir _____

10. Siz, odatda, bolalar uchun qanday qo'shimcha tadbirlarni o'tkazasiz?

11. Siz o'z shogirdlaringizda bo'lajak chempionlarni ko'rasizmi?

Ha

Yo'q

12. Musobaqalar vaqtida Siz har bir shogirdingiz uchun qayg'urasizmi?

Ha

Yo'q

13. Mashg'ulot paytida Siz o'z e'tiboringizni shogirdlaringizga qanday taqsimlaysiz?

a) asosiy e'tiborimni eng kuchlilarga qarataman;

b) zaiflarga ko'proq e'tibor beraman;

v) shogirdning yutuqlaridan qat'i nazar, faqat qo'pol xatolarni tuzataman;

g) hammaga bir xil;

d) boshqa javoblar.

14. Sizni guruhlardagi qo'nimsizlik tashvishlantiradimi?

Ha;

Yo'q.

15. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida o'quvchi bolalarning taxminan qancha qismi sport maktabida shug'ullanishni to'xtatib qo'yadi (% da) ?

a) birinchi o'quv yilida - 20; 40; 60; 80; 100.

b) ikkinchi o'quv yilida - 20; 40; 60; 80; 100.

v) uchinchi o'quv yilida - 20; 40; 60; 80; 100.

16. Siz mashg'ulotlar sifatini ko'tarish va shug'ullanuvchilar kontingentini saqlab qolish uchun boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida ishlovchi murabbiylarga qanday maslahat bergan bo'ladingiz?

17. Seksiyangizda shug'ullanuvchi bolalarning ota-onalari bilan qanday tadbirlar o'tkazasiz?

a) ota-onalar majlislari

b) alohida suhbatlar

v) musobaqalarga taklif qilaman

g) tanlov va viktorinalar o'tkazaman

d) yirik sportchilar bilan uchrashuvlar uyushtiraman

F. I. O. _____

Jinsi _____

Yoshi _____

Sport malakasi _____

O'qituvchilik faoliyati staji _____

Ma'lumoti _____

O'qigan joyi /qayerda o'qigansiz?/ _____

Ish joyi /hozirgi vaqtda/ _____

Siz ishlaydigan o'quvchilarning yoshi _____

Siz shug'ullangan sport turi _____

So'rovnoma yordamida savol-javob o'tkazish jarayonini takomillashtirish
bo'yicha takliflaringiz

YORDAMINGIZ UCHUN RAHMAT!

SO'ROVNOMA

boshlang'ich tayyorgarlik guruhlaridagi 8-9 yoshli bolalar uchun

F.I. _____

Yoshi _____

O'qish joyi _____

1. Sen sport kurashi bilan necha yoshdan shug'ullanasan?

2. Erkin kurash seksiyasiga qanday kelgansan?

a) ota-onam olib kelgan;

b) sinfim bilan keldim;

v) o'rtog'im bilan keldim;

g) o'zim keldim;

d) _____

3. Sen kurash mashg'ulotlariga kelasan, chunki:

a) kuchli bo'lishni istaysan;

b) chempion bo'lishni istaysan;

v) yangi narsalarni o'rganish yoqadi;

g) sen uchun bu qiziq;

d) bu yerda do'stlaring ko'p;

ye) senga murabbiy bilan muloqot qilish yoqadi;

j) musobaqalashish yoqadi;

k) boshqa yana nimadir

4. Senga murabbiyning ko'proq qaysi jihati yoqadi?

a) mehribonligi;

b) adolatliligi;

v) to'g'riso'zligi;

g) mehnatsevarligi;

d) qattiqqo'lligi;

ye) tashqi ko'rinishi;

j) gapirishi;

z) intizomlilik;

i) quvnoqligi;

k) yordamga tayyorligi.

5. Mashg'ulotdan tashqari vaqtda murabbiy sen bilan qanday gaplashadi?

a) ishlaring bilan qiziqadi;

b) sen bilan sport haqida suhbatlashadi;

v) sayohatlar, bayramlar uyushtiradi;

g) musobaqalar o'tkazadi;

d) boshqa variantlar.

6. Murabbiy senga kam e'tibor bersa, xafa bo'lasanmi?

Ha;

Yo'q;

7. Ota-onang sening sportdagi yutuqlaringga qiziqadimi?

a) mashg'ulotlaringga borishadi;

b) uyda yutuqlaring haqida so'rashadi;

v) musobaqalarga qo'llab-quvvatlash uchun kelishadi;

g) murabbiy bilan suhbatlashishadi;

d) umuman qiziqishmaydi;

ye) _____ boshqa

variantlar _____

8. Mashg'ulotlar qiziqarliroq bo'lishi uchun sen ularga nima qo'shgan bo'larding?

a) o'yinlar;

b) jamoali mashqlar (juftlikda, uchlikda va h.k.)

v) estafetalar;

g) yangi mashqlar (o'rgatish);

d) musobaqalar;

ye) boshqa yana nimadir _____

SO'ROVNOMAGA JAVOB YOZGANING UCHUN RAHMAT!

